



BUYRUQ

30-00321-sonli

2024 yil «28» may

“Komplayens-nazorat qo‘llanmasini tasdiqlash to‘g‘risida”

“UzAuto Motors”AJda Komplayens nazoratiga oid amaldagi ichki me‘yoriy hujjatlarni takomillashtirish va General Motors kompaniyasining komplayens-nazorat qo‘llanmasini tatbiq etish bo‘yicha tavsiyasini amalga oshirish maqsadida,

B U Y U R A M A N :

1 . Komplayens-nazorat qo‘llanmasi Jamiyatda komplayens talablariga rioya qilish madaniyatini shakllantirish hamda komplayensga oid ichki me‘yoriy hujjatlar talablarini to‘g‘ri qo‘llash, shuningdek General Motors kompaniyasining tavsiyasi hamda “O‘zavtosanoat” AJ tomonidan tavsiya etilgan na‘munaga asosan ishlab chiqilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur buyruqning 1-ilovasiga muvofiq “UzAuto Motors” AJ Komplayens-nazorat qo‘llanmasini va uning ilovalari tasdiqlansin.

3 . Komplayens xizmati (A. Odilov)ga mazkur buyruqning ilovasiga muvofiq me‘yoriy hujjatlar tasdiqlanganidan so‘ng 1 hafta mobaynida Jamiyatning tarkibiy tarmoqlariga ichki kommunikatsiya orqali yuborilishini ta‘minlash vazifasi yuklatilsin.

4 . Mazkur buyruqning ilovasiga muvofiq hujjatlar tasdiqlangan kundan e‘tiboran amalda tadbiq etilsin.

Tasdiq

Korxona bosh direktori



2024-05-28 17:51

B. I. Andersson

2024-05-28 15:15

Rozilik

Departament direktori

Yuridik departament



2024-05-28 15:15

A. A. Abdullayev

2024-05-15 15:20

Kanselyariya mudiri
*Kanselyariya (bo'linma huquqiga
ega)*



2024-05-15 14:48

M. D. Zakirova
2024-05-15 14:48

Bo'lim ichida rozilik

Komplayens xizmati rahbari
Komplayens xizmati



2024-05-15 14:14

M. N. Xakimov
2024-05-14 19:20

Boshqarma boshlig'i
*"UzAuto Motors" komplayens
xizmati boshqarmasi*



2024-05-15 09:08

D. F. Bahramov
2024-05-14 19:20

Bo'lim boshlig'i
*Korrupsiyaga qarshi kurashish va
xorijiy normativ talablarni
bajarishni nazorat qilish bo'limi*



2024-05-14 19:42

A. M. Gafurov
2024-05-14 19:20

Mas'ul

**Xorijiy normativ talablarni
bajarishni nazorat qilish va
komplayens siyosati bo'yicha
o'qitish bo'yicha komplayens
inspektori**
*Korrupsiyaga qarshi kurashish va
xorijiy normativ talablarni
bajarishni nazorat qilish bo'limi*



2024-05-14 19:20

A. A. Odilov
2024-05-14 19:20

KOMPLAYENS – NAZORAT QO‘LLANMASI

Halollik va yuksak xulq-atvor “UzAuto Motors” AJning (keyingi o‘rinlarda – kompaniya / jamiyat / korxona) asosiy qadriyatlaridir.

Amaldagi barcha qonunlarga, jumladan poraxo‘rlik va korrupsiyaga qarshi qoidalariga rioya qilish kompaniya uchun eng muhim qadriyat hisoblanib, kompaniya o‘z faoliyatini halollik va axloq qoidalariga rioya qilgan holda tashkil qiladi. Kompaniya rahbariyati uning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun mas’ul bo‘lgan barcha tarkibiy tarmoqlar va uchinchi tomonlarga ta’sir etuvchi kuchli axloqiy madaniyatni rivojlantiradi.

Mazkur Komplayens-nazorat qo‘llanmasida (keyingi o‘rinlarda – qo‘llanma) muhokama qilinganidek, kompaniyaning komplayensga bo‘lgan munosabati uning foaliyati bilan muvofiqlashtirilgan va havflarni oldini olish metodologiyasiga asoslangan.

Mazkur qo‘llanma va unda keltirib o‘tilgan qoidalar kompaniyaning barcha xodimlariga, shu jumladan, ular bilan cheklanmagan holda, (bosh) direktorlar, tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari, boshqaruvchilar va shartnoma asosida ishlaydigan shaxslar (keyingi o‘rinlar – xodimlar)ga nisbatan mo‘ljallangan.

Kompaniya tomonidan komplayens dasturi tashkil qiluvchi qoidalar va tartiblariga rioya qilinishiga qo‘shimcha ravishda kompaniya o‘zining biznes hamkorlari, kontragentlari va uchinchi shaxslardan (keyingi o‘rinlarda – biznes hamkorlar) biznes hamkorlar, kontragentlar va uchinchi tomonlar uchun odob-axloq kodeksi va mazkur qo‘llanma qoidalariga amal qilishni talab qilishi lozim.

Ushbu biznes hamkorlar doirasiga quyidagilar kiradi:

- Yetkazib beruvchi va xizmat ko‘rsatuvchilar – kompaniyaga tovarlar yetkazib berish yoki xizmat ko‘rsatish uchun tanlab olinganlar;
- Distribyuterlar – kompaniya tomonidan ishlab chiqarilgan avtotransport vositalarini yetkazib berish uchun tanlab olinganlar;
- Diler kompaniyalar – kompaniya tomonidan ishlab chiqarilgan avtotransport vositalarini sotish, mahsulotga sotishdan keyingi xizmatlarni ko‘rsatish uchun jalb qilingan tashkilotlar;
- Yig‘ish bo‘yicha hamkorlar – kompaniya tomonidan ishlab chiqariladigan va tarqatiladigan avtotransport vositalarini yig‘ish uchun tanlab olinganlar.

Mazkur qo‘llanma kompaniyaning barcha kelishuvlari va moliyaviy tranzaksiyalariga nisbatan qo‘llaniladi. Qo‘llanma kompaniyaning amaldagi komplayens siyosatlari asosida tayyorlangan bo‘lib, unga rioya etish majburiydir va xodimlar ushbu qo‘llanmani o‘qishlari, tushunishlari va unga muvofiq faoliyat yuritishlari lozim.

Qo‘llanmada keltirilgan komplayens qoidalariga, tartib-taomillarga rioya qilmaslik tegishli komplayens siyosatlarga asosan, intizomiy choralarda qo‘llanilishiga, shu jumladan mehnat shartnomasi bekor qilinishiga olib kelishi mumkin.

Qo‘llanmada bayon qilingan qoidalar va siyosatlar rioya qilinishi lozim bo‘lgan eng quyi standartlarni belgilaydi. Agar qonun hujjatlarda yuqoriroq talablar belgilangan bo‘lsa, kompaniya qonun hujjatlarda belgilangan talablarga asoslanadi. Ushbu qo‘llanmada ko‘rsatib o‘tilgan qoidalardan yengilroq standartlarini belgilamoqchi bo‘lishsa, Komplayens xizmatidan tegishli yozma ruxsat olishlari lozim.

Qonunlarni, reglamentlarni yoki kompaniyaning asosiy siyosati va tartib-taomillarini, shu jumladan Odob-axloq kodeksi va mazkur qo‘llanmada bayon qilingan komplayens talablarini buzilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Shubhali huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi berilgan xabarlar tezkorlik bilan tegishli ravishda tekshiriladi. Sodir etilgan huquqbuzarlik intizomiy chora ko‘rilishiga,

zararni qoplashni talab qilinishiga yoki mehnat shartnomasini bekor qilinishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, kompaniya har qanday qonunbuzarlik haqida tegishli huquqni muhofaza qiluvchi yoki nazorat qiluvchi organga xabar berishga haqli.

Odob-axloq kodeksi va komplayens, mazkur qo'llanma yoki boshqa komplayensga aloqador siyosatlar va tartib-taomillar bo'yicha har qanday savollar Komplayens xizmatiga yuborilishi kerak. Mazkur qo'llanmada ko'rsatilgan qoidalar va tartib-taomillar asosida yaratilgan barcha hujjatlar kompaniya Komplayens xizmati tomonidan 5 yilgacha saqlanadi.

Agar xodimga ushbu qo'llanmada belgilangan qoidalar, siyosatlar va tartib-taomillar bo'yicha maslahat kerak bo'lganda yoki xodim biror bir qoida qaysidur shaxs tomonidan buzilgan deb hisoblasa, xodim ishonch telefoni: +99878-140-56-30 yoki elektron pochta manzili: compliance@uzautomotors.com orqali Komplayens xizmatiga murojaat qilishi kerak.

Kompaniya mumkin bo'lgan qoidabuzarlik haqida vijdonan xabar bergan shaxsga nisbatan taqiblar bo'lishiga yo'l qo'ymaydi !

Xodimlar Odob-axloq kodeksi va mazkur qo'llanma bilan tanishib chiqishlari va bu haqida Komplayens sertifikatini Komplayens xizmatiga topshirishlari lozim.

Bilish muhim !

Komplayens sertifikat

Mazkur kompalayens bo'yicha qo'llanmada nazarda tutilgan tamoyillar doim kompaniya korporativ siyosatining asosiy qismini tashkil etishi lozim. Kompaniyaning har bir xodimi Odob-axloq qoidalari va Komplayens bo'yicha qo'llanmani (keyingi o'rinlarda - qo'llanma) olganidan so'ng, har yili Odob-axloq qoidalari va qo'llanmani olganligi, tanishib chiqqanligi, shuningdek o'quv mashg'ulotlarida ishtirok etganliklarini va ular Odob-axloq qoidalari hamda qo'llanma qoidalarga muvofiq faoliyat yuritganliklarini quyidagi shaklda tasdiqlaydilar:

F.I.Sh: _____

Tashkilot: _____

Boshqarma: _____

Lavozim: _____

Men ushbu bilan tasdiqlaymanki:

- (1) Men Odob-axloq kodeksi va qo'llanmani oldim hamda ular bilan tanishib chiqdim.
- (2) Har yilgi komplayens bo'yicha o'quv mashg'ulotlarida ishtirok etdim.
- (3) Men Odob-axloq kodeksi, qo'llanma va boshqa barcha tegishli qonunlar hamda yo'riqnomalarning qoidalarga amal qilaman, faoliyatim davomida ularga amal qilish va ijrosini ta'minlashni rag'batlantiraman.
- (4) Men Odob-axloq kodeksi va qo'llanma, shuningdek kompaniyadagi faoliyatim bilan bog'liq amaldagi qonun hujjatlari va qoidalarga qarshi bo'lgan hech qanday tadbirlarda ishtirok etmadim.
- (5) Men kompaniya rahbariyati, mas'ul shaxsi va xodimi tomonidan Odob-axloq kodeksi va qo'llanma yoki amaldagi qonun hujjatlari hamda qoidalarining buzulganligi yoki buzilishi mumkin bo'lishi to'g'risidagi ma'lumotga ega emasman.
- (6) Men bevosita yoki bilvosita mansabdor shaxsga (qo'llanmada ko'rsatilganidek) uning vakolatlaridan foydalangan holda, kompaniya faoliyati bilan bog'liq masalalarni hal etish, ko'maklashish yoki tegishli ustuvorliklar olish uchun pora yohud hech qanday qimmatbaho buyumlar taklif etmaganman, va'da qilmaganman va harakat ham qilmaganman.
- (7) Men bevosita yoki bilvosita hech bir shaxsga uning tadbirkorligi yoki ish faoliyati bilan bog'liq korporativ boshqaruv organi yoki boshqa shaxslar nomidan noqonuniy harakatlarni amalga oshirishga undash maqsadida pora yoki hech qanday qimmatbaho buyumlar taklif etmaganman, va'da qilmaganman va harakat ham qilmaganman.
- (8) Men kompaniyadagi faoliyatim bilan bog'liq biror bir vazifani o'rnatilgan qoidalarga zid ravishda bajarishim uchun pora yoki hech qanday qimmatbaho buyumlarni olmaganman, talab qilmaganman yoki olishga urinmaganman.
- (9) Men bevosita yoki bilvosita noqonuniy pullarni qonuniylashtirish, terorizm yoki terorizm bilan bog'liq faoliyatini moliyalashtirish ishlarida ishtirok etmaganman.
- (10) Men iqtisodiy sanksiyalar va embargolar ro'yxatiga kiritilgan tomonlar bilan hech qanday bitimlarga kirishmaganman.

(11) Men sanksiyalar qoʻllanilgan mamlakatlar va hududlardan/ga, tovarlar joʻnatish bilan shugʻullanuvchi korxonalar bilan hech qanday bitimlarga kirishmaganman

(12) Men kompaniya tomonidan ishlab chiqariladigan avtotransport vositalarini tarqatish va sotish bilan shugʻullanuvchi diller kompaniya, distribyuter, shuningdek kompaniyaning boshqa kontragentlari hamda afillangan shaxslari bilan bevosita yoki bilvosita aloqador emasman, quyidagilar bundan istisno:

(13) Mening hech qaysi bir oila aʼzolarim (yaʼni, ota-onam, turmush oʻrtogʻim, boshqa muhim shaxslar, farzandim yoki aka-ukalarim) kompaniya tomonidan ishlab chiqariladigan avtotransport vositalarini tarqatish va sotish bilan shugʻullanuvchi diller kompaniya, distribyuter, shuningdek kompaniyaning boshqa kontragentlari hamda afillangan shaxslari bilan bevosita yoki bilvosita aloqador emas, quyidagilar bundan istisno:

(14) Men kompaniya va uning nomidan ish olib boradigan har qanday tuzilmaga vujudga kelishi mumkin boʻlgan komplayens nazorat bilan bogʻliq boʻlgan, shu jumladan, firibgarlik, korrupsiya, noqonuniy mablagʻlarni legallashtirish, iqtisodiy sanksiyalar va manfaatlar toʻqnashuvi bilan bogʻliq qoidabuzarliklarni tekshirish maqsadida, kompaniya tomonidan taqdim etilgan kompyuter, telefon qurilmalari (xususan, har qanday noutbuk, kompyuter, telefon) tekshirishga rozilik bildiraman.

Imzolandi:

Joy: _____

Sana: _____

Imzo: _____

Mundarija

1. PORAXO‘RLIK VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SIYOSATLARI	11
“UZAUTO MOTORS” AJNING PORAXO‘RLIK VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SIYOSATI.....	11
1. Kirish.....	11
2. Korruptsiyaga qarshi kurashish uchun ma’sul	12
3. Siyosatning asosiy maqsadi	12
4. Atamalar va ta’riflar	12
5. Korruptsiyaga qarshi kurash tamoyillari	16
6. Korruptsiyaga qarshi kurashishning asosiy yo’nalishlari.....	17
7. Ichki hujjatlarning korruptsiyaga qarshi ekspertizasi.....	18
8. Jamiyat faoliyati sohasiga yangi texnologiyalarni joriy etish	19
Jamiyatdagi faoliyatni videoqayd qilish va uning translyatsiyasi	19
9. Hisobot hujjatlari va hisobot berish	19
10. Jamiyatning korruptsiyaga qarshi siyosati to’g’risida xodimlar va uchinchi shaxslarning xabardorligini ta’minlash	19
12. O’rganish, tekshiruv va monitoring o’tkazish.....	20
13. Monitoring, nazorat va hisobdorlik.....	21
14. Javobgarlik	22
15. Korruptsiyaviy harakatlarga doir xabarlar va maslahatlar	23
16. Qayta ko’rib chiqish va o’zgarishlar kiritish tartibi	24
17. Hisobot va qaydnomalar	24
18. Korruptsiyaga qarshi kurashishga doir siyosatlar	24
19. O’qitish va sertifikat berish.....	25
2. XODIMLARANING ETIKA VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDA O’QITILISHINI TASHKIL QILISH BO’YICHA YO’RIQNOMA	25
2.1. Umumiy qoidalar	25
2.2 O’qitishning asosiy tamoyillari	26
2.3 O’qitishning ustuvor vazifalari	26
2.4 O’qitishni ishlab chiqish va o’tkazishga mas’ul shaxslar	26
2.5 O’qitish turlari va shakllari	27
2.6 O’qitish muddatlari va davriyligi	28
2.7 O’qitish intizomini nazorat qilish va hujjatlarni saqlash.....	29
2.8 Yakuniy qoidalar	30
3.1 Umumiy qoidalar	32

4. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH TIZIMINING HOLATI TO‘G‘RISIDAGI HISOBOTNI SHAKLLANTIRISH VA TAQDIM ETISH BO‘YICHA NIZOM	41
4.1 Umumiy qoidalar	41
4.2 Hisobot turlari va ularning davriyligi	41
4.3 Korruptsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyati to‘g‘risida hisobot tuzish tartibi.....	41
4.4 Korruptsiyaga qarshi kurashga oid davlat dasturlarida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish tartibi.....	42
4.5 Yakuniy qoidalar	43
4.6 Shakllar va ilovalar	43
5. KORRUPSIYAVIY XAVF-XATARLARNI BAHOLASH USLUBIYOTI	54
5.1 Umumiy qoidalar	54
5.2 Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash.....	57
5.3 Korruptsiyaviy xavf-xatarlarning keyingi (har yillik) baholanishi.....	58
5.4 Jamiyatda amalga oshiriladigan funksiyalar va tartib-taomillarning korruptsiyaviy xavf-xatar darajasini baholash tartibi	59
5.5 Korruptsiyaviy xavf-xatarining qoldiq darajasini minimallashtirish choralari.....	59
5.6 Yakuniy qoidalar	60
II. FIRIBGARLIK, JINOIY DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISH VA TERORIZMNI MOLIYALASHTIRISH	67
Kirish	67
Atamalar va tariflar.....	67
Noqonuniy mablag‘larni legallashtirish va terorizmni moliyalashtirish	68
Firibgarlik, jinoiy daromadlarni legallashtirish va terorizmni moliyalashtirish bilan shug‘ullanishni taqiqlash.....	69
Amaldagi AML/CFT qonunchiligiga qat’iy rioya qilish.....	69
Xavotirlar haqida xabar berish	70
III. SANKSIYALAR VA EKSPORT NAZORATI	71
Kirish	71
Atamalar, ta’riflar va umumiy qoidalar.....	71
Iqtisodiy sanksiyalar	73
Mamlakatlar / Mintaqalarga qarshi	73
Jismoniy va yuridik shaxslarga qarshi	73
Eksport nazorati.....	74
AQSHning eksport nazorati qonunchiligi	74
O‘zbekiston eksport nazorati qonunlari	75
Jarayon va talablar	76
Litsenziyalash va yakuniy xaridorlarni tasdiqlash	77

Yuklarni tashish	77
Siyosatni tartibga solish.....	77
Chet ellik shaxslar bilan shartnomalar (bitimlar) tuzishda eksport nazoratining quyidagi bosqichlariga rioya qilish kerak:	77
Shakllar va ilovalar	79
IV. SOVG‘ALAR, MEHMONDO‘STLIK, O‘YIN-KULGU, VA SAYOXAT	80
Kirish	80
2. Taqiqlar	81
2. Ruxsat etilgan sovg‘alar, mehmondo‘stlik, o‘yin-kulgi va sayohat uchun ko‘rsatmalar.....	81
Sovg‘alar berish	81
Mehmondo‘stlik yoki o‘yin-kulgi	82
Sovg‘alar/ko‘ngilochar/sayohat xarajatlarini tasdiqlash	84
Hisob yuritish	85
Ko‘rib chiqish	85
Kompaniya siyosatini biznes hamkorlari va uchinchi tomonlarga etkazish va javobgarlik choralari	85
Shakllar va ilovalar	86
V. XAYRIYA VA TIJORAT HOMIYLIGI.....	91
1. Maqsad va qo‘llash doirasi	91
4. Xayriya	95
3.2 Tijorat homiyligi	96
4. Xayriyani amalga oshirish tartibi	97
4.1 Buyurtmanoma kiritish tashabbusi.....	97
4.2 Buxgalteriya hisobi xizmati tomonidan ko‘rib chiqish.....	97
5. Tijorat homiyligini amalga oshirish tartibi.....	98
5.1 Buyurtmanoma kiritish tashabbusi	98
5.2 Buxgalteriya hisobi xizmati tomonidan ko‘rib chiqish	98
5.3 Komplayens xizmati tomonidan ko‘rib chiqish.....	99
6. Xayriya va Xomiylikni qabul qilish.	99
7. Ijtimoiy investitsiyalar va korporativ ijtimoiy javobgarlik	100
8. Hujjatlashtirish va hisobot	101
9. Tadbirlarda ishtirok etish.....	102
Shakllar va ilovalar	102
VI. BIZNES HAMKORLAR, KONTRAGENTLAR VA UCHINCHI SHAXSLARNI TEKSHIRISH.....	123
Kirish.....	123

1.1	Atamalar va tavsiflar.....	123
1.4	Tegishli tekshiruv.....	125
1.3.1	<i>Ma'qullangan Biznes hamkorlarning ro'yxati</i>	135
1.4	Keng qamrovli tekshiruv Due Dilgence.....	135
BIZNES XAMKORLAR, KONTRAGENTLAR VA UCHINCHI TOMONLAR UCHUN ODOB-AXLOQ KODEKSI		177
Umumiy qoidalar		186
MANFAATLAR TO'QNASHUVI.....		194
Kirish va siyosatning maqsadi.....		194
2.	Umumiy qoidalar va atamalar.....	195
3.	Manfaatlar to'qnashuvini boshqarishning tamoyillari	199
3.1	Manfaatlar to'qnashuvining turlari	200
4.	Mas'ul tarkibiy tuzilmalar xodimlarining majburiyatlari va vakolatlari.....	201
MANFAATLAR TO'QNASHUVI HAQIDAGI MA'LUMOTLARNI OSHKOR QILISH VA KO'RIB CHIQISH TARTIBI		204
5.3.1	Manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiya qilishning umumiy qoidalari.....	204
5.3.2	Bo'sh ish joylariga nomzodlarni lavozimga tayinlash va rotatsiya qilishda manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiya qilish	204
5.3.3	Manfaatlar to'qnashuvini har yillik deklaratsiya qilish	204
5.3.4	Real yoki potensial manfaatlar to'qnashuvining kelib chiqish fakti bo'yicha deklaratsiya to'ldirish	205
5.4	Manfaatlar to'qnashuvini hal qilish choralari	206
5.4.1	Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida ma'lumotni oshkor qilish. Manfaatlar to'qnashuvini hal qilish. Axborotning konfidentsialligi	207
5.4.2	Reestrni yuritish va saqlashga qo'yiladigan talablar	208
5.4.3	Siyosatni amalga oshirish va talablarga rioya etilishini ta'minlash.....	209
Shakllar va ilovalar		210
Manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha siyosatiga 2-Ilova.....		216
QOIDABUZARLIKLAR MATRITSASI		290

1. PORAXO‘RLIK VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SIYOSATLARI

“UZAUTO MOTORS” AJNING PORAXO‘RLIK VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SIYOSATI

1. Kirish

Poraxo‘rlik va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha siyosat (keyingi o‘rinlarda – siyosat) “UzAuto Motors” AJda (keyingi o‘rinlarda – jamiyat) halollik siyosatini ta‘minlash, ya‘ni xodimlar va umuman jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyatini oshirish maqsadida yuksak xulq-atvor standartlariga muvofiqlik, shuningdek lavozim (xizmat) majburiyatlarini bajarish chog‘ida jamiyat xodimlari tomonidan korrupsiyaviy harakatlar sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaslikka doir pozitsiyasini ifodalaydi.

Ushbu Siyosat O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta‘minlash, shuningdek jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019-yil 27-maydagi PF-5729-son “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-martdagi 62-son “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” qaroriga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi xalqaro tashkilotlar tavsiyalari va ilg‘or dunyo tajribasi, jumladan ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurash menejmenti tizimi – Talablar va ularni qo‘llashga doir tavsiyalar” xalqaro standarti talablari va tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

Jamiyat, jamiyat nazorati ostidagi faoliyat ko‘rsatadigan korxonalar, shuningdek, jamiyat manfaatlarida va uning nomidan ish olib boruvchi barcha shaxslar tomonidan yuqorida qayd etib o‘tilgan qonun hujjatlariga, qonun hujjatlariga rioya etilishi talab etiladigan mamlakatlarda mavjud bo‘lgan poraxo‘rlik va korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi barcha qonunlarga amal qiladi. Jamiyat har qanday shakldagi poraxo‘rlik va korrupsiyani qat‘iyan rad etadi.

Jamiyat o‘z faoliyatida doimo adolatli, halol va vijdonan ishlaydi. Jamiyat dunyoning ko‘plab mamlakatlarida faoliyat yuritadi, shu sababli u poraxo‘rlik va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy va xalqaro qonunlarga, jumladan, AQSHning “Chet eldagi korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni, Buyuk Britaniyaning “Poraxo‘rlikka qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa ekstritorial qonunlarga bo‘ysunadi. jamiyatning poraxo‘rlik va korrupsiya faoliyatiga aralashishi tegishli javobgarlikka olib kelishi, shuningdek, jamiyat faoliyati va obro‘sig a putur yetkazishi mumkin.

Ushbu va boshqa ko‘plab qonunlarga ko‘ra, korrupsiya va poraxo‘rlik jinoiy huquqbuzarlik bo‘lib, qamoq yoki jarima yoki qonun hujjatlarida belgilangan boshqa jazolar bilan jazolanadi. Shu

sababli, Kompaniya o'z huquqiy majburiyatlariga juda jiddiy yondashadi va sizdan ham shunday qilishingizni kutadi va ushbu Qo'llanma shartlarini to'liq qo'llab-quvvatlash va ularga rioya qilish va qo'l ostidagi xodimlar rioya qilishiga sabab bo'ladi hamda buning uchun tegishli shart-sharoitlar yaratadi.

2. Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun ma'sul

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimini shakllantirish uchun alohida Komplayens xizmati tashkil etiladi.

Jamiyatda Komplayens xizmati o'z faoliyatini "Komplayens xizmati to'g'risida"gi Nizom asosida amalga oshiradi va xizmat bevosita jamiyatning kuzatuv kengashiga bo'ysunadi.

Jamiyat rahbari Komplayens xizmatini jamiyatda korrupsiyaga qarshi vazifalarni amalga oshirish uchun yetarli darajadagi mustaqillik va zarur resurslar bilan ta'minlaydi.

Jamiyatning Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi jamiyatning "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risida"gi Siyosati, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi normalarida ko'zda tutilgan tartib va hajmda xodimlarning yaqin qarindoshlari va ularga aloqador shaxslarga doir ma'lumotlarning tizimli va o'z vaqtida yig'ilishi, tahlil qilinishi va aktallashtirilishi uchun javob beradi.

Jamiyatda alohida Odob-axloq komissiyasi faoliyat yuritadi.

Jamiyatdagi Odob-axloq komissiyasi jamiyatdagi xodimlarning Odob axloq qoidalari bilan belgilangan xulq-atvor me'yorlariga rioya qilish masalalarini ko'rib chiqadi, shuningdek "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risida"gi Siyosatida belgilangan tartibda manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq vaziyatlarni tartibga solish jarayonida ishtirok etadi.

3. Siyosatning asosiy maqsadi

Quyidagilar jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy maqsadi hisoblanadi:

- Jamiyat xodimlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunlari va korrupsiyaga qarshi kurashishga doir ichki hujjatlar talablarini tushunish va ularga rioya etilishi;
- Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish va korrupsiyaga barham berish;
- Jamiyatning barcha faoliyat sohalarida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- aholining Jamiyatning faoliyati yuzasidan huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;
- Jamiyat xodimlari faoliyatining shaffofligi va xulq-atvor me'yorlariga muvofiqligini ta'minlash;
- korrupsiyaviy harakatlarni o'z vaqtida aniqlash, ularga barham berish, ularning oqibatlari, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaviy harakatlarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarliligi tamoyilini ta'minlash;
- Jamiyatda mavjud korrupsiyaga barham berish.

4. Atamalar va ta'riflar

Mazkur Siyosatning maqsadlari uchun quyidagi asosiy tushunchalar va atamalardan foydalaniladi:

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi – korrupsiyaviy harakatlarning, O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi va Jamiyatning

korruptsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir ichki hujjatlari buzilishining oldini olish, Jamiyat xodimlari tomonidan o'z faoliyatini professional va xulq-atvor jihatdan yuksak darajada amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar.

Qadr/ Qiymatga ega biron-bir narsa - foydaning har qanday, jumladan, pul mablag'lari, badallar, pul ekvivalentlari, kreditlar, sovg'alar, sovrinlar, mehmondorchilik, safarlar, ko'ngilocharlik, mahsulotlar namunalari, siyosiy badallar, xayriya ehsonlari, ishga joylash bo'yicha takliflar, stipendiyalar, kelajakda ishga joylash bo'yicha va'dalar, moliyaviy yordam bilan cheklanmagan holdagi shakli.

Hamkor - sherik, shu jumladan bir honadonda yashovchi har bir shaxs (shuningdek qarindosh bo'lmaganlar), yaqin do'st, hozirgi yoki sobiq davlat xodimi, rasmiy yoki norasmiy hukumat maslahatchilari.

Poraxo'rlik - keyinchalik foyda yoki ustunlikni olish yoki saqlab qolish uchun biron-birning xatti-harakatlariga ta'sir o'tkazish niyatida qimmatbaho narsanini berish, taklif qilish, va'da qilish, qabul qilishga ruxsat berish, tama qilish yoki olish (yoki berish, taklif qilish, va'da qilish, ruxsat berish, iltimos qilish yoki olishga urinish).

ish faoliyati yuzasidan mehmondo'stlik belgilari – uchinchi shaxslarning hamkorlik o'rnatish va/yoki uni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq bo'lgan, Jamiyat xodimlarining sodiqligini oshirishga qaratilgan, Jamiyat xodimlari manfaatlari yo'lidagi harajatlari, jumladan uchinchi shaxslarning ovqatlanishi, ish faoliyati yuzasidan tushliklar tashkil etilishi bilan bog'liq harajatlari, transport harajatlari, yashash, ko'ngilochar tadbirlar, jumladan sayohat dasturlari bilan bog'liq harajatlar va h.k.

Biznes hamkor / kontragent – Jamiyat bilan shartnomaviy munosabatlariga (mehnat munosabatlaridan tashqari) kirishadigan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs (Biznes hamkorni kontragent, yetkazib beruvchi, distribyutor, diler yoki Jamiyat nomidan va uning manfaatlarini uchun harakat qilishga vakolatli boshqa uchinchi shaxsni misol keltirishi mumkin);

xayriya (xayriya yordami) – yuridik va jismoniy shaxslar (xayriya qiluvchilar)ning tashkilot uchun bepul yoki imtiyozlar asosida moddiy va/yoki nomoddiy boyliklar, xususan, pul mablag'lari shaklidagi boyliklarni topshirish, ular uchun ma'lum ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish va xayriya maqsadlaridagi boshqa qo'llab-quvvatlashlarni taqdim etishda namoyon bo'ladigan ixtiyoriy beg'araz yordami.

yaqin qarindoshlar – bir-biriga qarindoshlik yoki yaqin aloqasi bor shaxslar, ya'ni ota-ona, tug'ishgan hamda tutingan aka-ukalar va opa-singillar, er-xotin, farzandlar (jumladan asrab olingan farzandlar), buvalar, buvilar, nabiralar, shuningdek er (xotin)ning ota-onasi, tug'ishgan va tutingan aka-ukalari va opa-singillari.

manfaatlar to'qnashuvi — Jamiyat xodimining shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan jamiyatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat.

korruptsiyaviy xarakatlar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo'lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo'lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog'oz, boshqa ko'rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun

to'lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish.

korruptsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish.

korruptsiyaviy huquqbuzarlik – sodir etilganlik uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida javobgarlik belgilab qo'yilgan korruptsiya alomatlariga ega hatti-harakat.

korruptsiyaviy xavf-xatar – jamiyat xodimlari yoki uchinchi shaxslar tomonidan Jamiyat nomidan yoki ularning manfaatlari yo'lida korruptsiyaviy harakatlarni amalga oshirish xavfi.

kronizm (favoritizmning do'stona aloqalarga asoslangan ko'rinishi) – do'stlar yoki ishonchli shaxslarga noqonuniy imtiyozlar taqdim etish maqsadida hokimiyat va/yoki obro'sidan foydalanish.

xodim – jamiyat bilan mehnat munosabatlariga kirishgan jismoniy shaxs (Jamiyat direktori va uning o'rinbosarlari, tarkibiy tuzilmalar boshliqlari (rahbarlari) va boshqa ishchilar).

rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar – belgilangan tartib-taomillar yoki harakatlarni sodir etish bilan bog'liq standart tartiblar amalga oshirilishini ta'minlash yoki tezlashtirish maqsadida tegishli qonunchilik va normativ me'yorlar hamda qoidalarda ko'zda tutilmagan noqonuniy ravishda taqdim etiladigan pul mablag'lari, mol-mulk, mulkiy huquqlar, xizmatlar hamda boshqa moddiy va nomoddiy foyda.

favoritizm – Jamiyat xodimi boshqa shaxs yoki shaxslar guruhi manfaatlariga qaraganda bitta shaxs yoki shaxslar guruhi manfaatlariga ustuvor ahamiyat qaratishi, Jamiyatda kadrlarni tanlash va joylashtirish, lavozimini ko'tarish, mukofot puli berish va davlat mukofotlariga tavsiya etish, ta'til berish yoki sihatgohlar va xorijiy safarlarga yuborish, murojaatlar, shuningdek ish va navbatchilik jadvalarini ko'rib chiqishda ketma-ketlikni yo'lga qo'yish bilan bog'liq vaziyatlarda tartiblarga rioya qilmaslik.

korruptsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi – Jamiyatda korruptsiyaga qarshi kurashish vazifasi yuklangan tarkibiy tuzilma.

xalqaro tashkilot – davlatlar, hukumatlar yoki boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkiliy shakli va vakolatlaridan qat'iy nazar tashkil etilgan har qanday xalqaro tashkilot, jumladan, masalan iqtisodiy integratsiya bo'yicha mintaqaviy tashkilotlar.

mahalliychilik – mahalliy manfatlarnigina ko'zlab ish tutish. Bunda, shaxsni uning nasliy kelib chiqishi (aslzoda yoki mashhur sulola vakili ekanligi va u jamoatchilik tomonidan e'tirof etilganligi) hamda yaqin qarindoshlarining egallab turgan xizmat mavqei sababli, uning lavozimga qo'yiladigan malaka talablariga mos kelish-kelmasligini hisobga olmagan holda ishga qabul qilish, rotatsiya qilish va lavozimga tayinlash.

nepotizm (tanish-bilishchilik, qarindosh-urug'chilik; favoritizmning qarindoshlik rishtalariga asoslangan ko'rinishi) - o'zining yaqin qarindoshlari yoki do'stlariga noqonuniy imtiyozlar berish maqsadida hokimiyatdan foydalanish va (yoki) ta'sir o'tkazish, shuningdek, yaqin qarindoshlari va (yoki) do'stlariga asossiz mukofotlar hisoblash, Jamiyat manfaatlari zarariga, yaqin qarindoshlari va do'stlarini ishga qabul qilish va lavozimga tayinlashlar.

Siyosiy ta'sir ko'rsatadigan shaxs - amaldagi yoki sobiq yuqori lavozimli amaldor, shu jumladan:

mahalliy davlat xokimiyati yoki o'zini o'zi boshqarish organlarining rahbari;
 hukumat rahbari, vazir (vazir o'rinbosari);
 parlament deputati yoki shunga o'xshash qonun chiqaruvchi organ a'zosi;
 siyosiy partiyaning boshqaruv organi (kengashi) a'zosi;
 Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud sudyasi yoki boshqa darajadagi sud organining sudyasi (sud organi a'zosi);
 oliy taftish (auditorlik) tashkiloti kengashi yoki boshqaruv a'zosi;
 Markaziy bank kengashi yoki boshqaruvi a'zosi;
 elchi (konsul);
 inson huquqlari bo'yicha vakil yoki biznes ombudsman;
 katta lavozimdagi harbiy ofitser;
 davlat ulushi bo'lgan Jamiyat kengashi yoki boshqaruvi a'zosi;
 xalqaro tashkilot rahbari;
 Yuqorida sanab o'tilgan shaxslardan birining yaqin qarindoshi yoki hamkori.
 Davlat xizmatchisi –

- davlat organi, jumladan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlari, idoralari, davlat yoki davlat nazorati ostidagi korxonalar va tashkilotlar, shuningdek davlat korxonalari nomidan ish yurituvchi har qanday mansabdor shaxs yoki xodim;
- doimiy yoki vaqtinchalik, saylangan yoki tayinlangan, davlat tashkilotlarida hokimiyat vakilining vazifalarini bajaradigan har qanday shaxs;
- davlat organlarida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida (mulkchilik shaklidan qat'iy nazar) korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda tashkiliy-boshqaruv, ma'muriy-xo'jalik vazifalarini bajaruvchi hamda yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan har qanday shaxs; milliy, davlat, mahalliy hukumat yoki xalqaro jamoat tashkiloti, shu jumladan lekin ular bilan cheklanmagan holda, uning qonun chiqaruvchi organlari, bo'limlari, agentliklari, sud tizimlari, davlat yoki davlat nazoratidagi korxonalar uchun yoki ularning nomidan rasmiy lavozimda ish yurituvchi davlat hokimiyatining saylangan yoki tayinlangan har qanday mansabdor shaxsi yoki xodimi
- xalqaro tashkilot nomidan yoki xorijiy davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi yoki sud organi tomonidan vakolat berilgan har qanday mansabdor shaxs (misol uchun Jahon banki yoki BMT)
- siyosiy partiya a'zosi yoki siyosiy lavozimga nomzod;
- unvoni yoki lavozimidan qat'iy nazar davlatga tegishli yoki davlat tomonidan nazorat qilinadigan korxonaning mansabdor shaxsi yoki xodimi;
- biznesda muhim qarorlar qabul qilishga ta'sir etish vakolatiga ega haq olmaydigan mansabdor shaxslar;
- siyosiy ta'sir etuvchi kuchga ega shaxs;
- davlat organlari uchun takliflarni ko'rib chiqish yoki qabul qilish uchun yo'llangan shaxslar;
- yuqorida sanab o'tilgan shaxslardan birining yaqin qarindoshlari yoki hamkori.

aloqador shaxslar – jamiyat xodimi bilan tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etadigan shaxslar, aksiyalari Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining besh foizidan kam bo'lgan miqdordagi aksiyaga ega ekanligi bundan mustasno.

Davlat tashkiloti:

davlat idorasi, shu jumladan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyat organlari, departament, muassasalar, idoralar, davlat yoki davlat boshqaruvi ostidagi korxona va tashkilotlar, shuningdek, davlat ulushi bo'lgan korxonalar;
 har qanday siyosiy partiya;

har qanday xalqaro tashkilot (Jahon banki yoki Birlashgan Millatlar Tashkiloti kabi).

urug'-aymoqchilik – jamiyat xodimining avlod-ajdodlari bir bo'lgan, bir sulolaga mansublik asosida uchinchi shaxslarga nisbatan subyektiv, imtiyozli va noxolis munosabat shaklidagi shaxsiy manfaatdorligi.

5. Korrupsiyaga qarshi kurash tamoyillari

Korrupsiyaga qarshi kurash tizimi quyidagi tamoyillar asosida tashkil etiladi va faoliyat yuritadi:

- qonuniylik - Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq davlat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ilg'or dunyo tajribasi, shuningdek Jamiyat ichki hujjatlariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiriladi;
- korrupsiyaga nisbatan murosasizlik (toqatsizlik) – jamiyat o'z faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyaning har qanday shakllari va ko'rinishlariga murosasiz (toqatsiz) munosabatda bo'ladi. Jamiyat hodimlariga korrupsiyaviy xavf-xatar kelib chiqishi mumkin bo'lgan faoliyatda bevosita yoki bilvosita ishtirok etish qat'iy taqiqlanadi;
- ochiqlik va shaffoflik - Jamiyat xodimlari va kontragentlari, keng jamoatchilikni Jamiyatda qabul qilingan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida xabardor qilish (maxfiylik va xizmat siri to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarini hisobga olgan holda);
- korrupsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning preventiv xususiyatga ega bo'lishi, tizimliliigi va yahlitligi – korrupsiyaning oldini olish, korrupsiyaviy harakatlarning sodir etilishiga xizmat qiluvchi sabab va shart-sharoitlar hamda korrupsiyaviy xatarlarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishning ustuvorligi. Korrupsiyaga qarshi joriy etilayotgan chora-tadbirlar va tartib-taomillar aniqlangan xavf-xatarlar darajasiga mos kelishi va Jamiyatning barcha funksiyalari va yo'nalishlarini qamrab olgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga birlashtirilishi;
- korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarligi - korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklarni sodir etgan jamiyat xodimlari o'zining mavqei va egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va jamiyatning ichki hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi;
- ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlari va axborot texnologiyalaridan foydalanish – jamiyat korrupsiyaga qarshi kurash tizimini shakllantirishda ilm-fan taraqqiyotining so'nggi yutuqlaridan, shu jumladan, integratsiyalashtirilgan axborot-kommunikatsiya tizimlaridan keng foydalanishga intiladi;
- to'g'ridan-to'g'ri rahbariyatga murojaat qilish – jamiyatning har bir xodimi korrupsiyaviy harakat sodir etilganligiga doir ishonchli va asosli ma'lumotlar mavjud bo'lganda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va jamiyatning ichki hujjatlarida ko'zda tutilgan chora-tadbirlarni qabul qilish uchun hududiy boshqarma yoki uning tasarrufidagi muassasa rahbari hamda jamiyat rahbariga hech qanday to'siqsiz murojaat qilishi mumkin;
- fuqarolik jamiyati vakillari bilan o'zaro hamkorlik – jamiyat o'ziga yuklatilgan funksiyalarni bajarishda ularning faoliyati ustidan mustaqil va xolis nazoratni amalga oshirish maqsadida fuqarolik jamiyati vakillarini jalb qiladi;

- monitoring, tahlil va baholash – jamiyat davriy asosda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi faoliyati monitoringi va tahlilini amalga oshiradi, shuningdek uning samaradorlik va natijadorlik ko‘rsatkichlarini baholaydi
- korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini doimiy ravishda takomillashtirish – korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish maqsadida Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini to‘xtovsiz ravishda oshirish choralari ko‘riladi.

6. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy yo‘nalishlari

Mazkur siyosat ham davlat, ham xususiy sektordagi barcha biznes munosabatlariga nisbatan qo‘llaniladi. Shunga qaramay, davlat xizmatchilari va davlat tashkilotlari bilan o‘zaro munosabatlarda alohida ehtiyotkorlik talab etiladi, chunki ular ko‘plab qoidalar asosida tartibga solinadi hamda poraxo‘rlik va korrupsiyaga aloqador yuqori xavf bilan tavsiflanadi. Jamiyat va uning xodimlariga davlat xizmatchisiga biznes imkoniyatlari yoki boshqa foydani olish, saqlash yoki nazorat qilish uchun rasmiy qarorlarga noqonuniy ta’sir o‘tkazish maqsadida qimmatbaho narsalarni berish taqiqlanadi.

Xodimlar va Biznes hamkorlarga har qanday shaxsga u bilan biznes aloqalar tufayli biznes imkoniyatlarini olish yoki saqlab qolish yoxud Jamiyat uchun g‘ayriqonuniy ustunlikka ega bo‘lish maqsadida (to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki vositachi orqali) noqonuniy ravishda pul mablag‘lari yoki qimmatbaho narsalarni taklif etish, va’da qilish, taqdim etish yoki o‘tkazishga ruxsat berish taqiqlanadi.

Jamiyatga va uning xodimlariga:

- Jamiyat uchun biznes imkoniyatlarini olish yoki saqlab qolish yoki g‘ayriqonuniy ustunlikni olish uchun har qanday shaxslarga pora berish;
- haqiqiy yoki mumkin bo‘lgan poraxo‘rlik yoki korrupsiya faoliyati belgilariga e’tibor bermaslik;
- ularning Jamiyat nomidan faoliyat olib borishida mustaqil fikrlariga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan qadriyatlarni talab qilish yoki qabul qilishlari taqiqlanadi.

Davlat amaldorlari va davlat tashkilotlari

Xodimlar va Biznes hamkorlar har qanday davlat amaldoriga pora taklif qilmasligi, va’da qilmasligi, bermasligi yoki berishga urinmasligi kerak.

Xususan, ular davlat mansabdor shaxsiga uning ta’siridan foydalangan holda Kompaniyaga biznesni yuritishda ustunlikni qo‘lga kiritish yoki saqlab qolish maqsadida, to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki boshqa shaxs yoki yuridik shaxs orqali biron bir qimmatli narsani taklif qilmasligi, va’da qilmasligi, bermasligi yoki harakat qilmasligi bermasligi kerak.

Tijoriy poraxo‘rlik

Xodimlar va Biznes hamkorlar har qanday xususiy yoki yuridik shaxsga pora taklif qilmasligi, va’da qilmasligi, bermasligi yoki urinmasligi kerak.

Xodimlar va biznes hamkorlar bevosita yoki boshqa shaxs yoki yuridik shaxs orqali xususiy shaxsga tadbirkorlik faoliyati yoki ularning ish faoliyati bilan bog‘liq har qanday faoliyatni noto‘g‘ri amalga oshirishga undash maqsadida biron bir qimmatli narsani taklif qilmasligi, va’da qilmasligi, berishligi yoki urinishi mumkin emas;

Xodimlar va biznes hamkorlar, shuningdek, mansabdor shaxs yoki xususiy shaxsdan mehnat bilan bog'liq har qanday vazifani noto'g'ri bajarishga undaydigan, mukofotlaydigan yoki rag'batlantiradigan yoki mukofotlashi mumkin bo'lgan qimmatli narsalarni so'ramasliklari, olmasliklari yoki qabul qilmasliklari (yoki so'rash, qabul qilish va qabul qilishga urinish) kerak.

Rasmiyatchilikni soddalashtirish uchun to'lovlar

Rasmiyatchilikni soddalashtirish uchun to'lovlar - bu davlat xizmatchisiga yoki mansabdor shaxsiga uning odatdagi vazifalari doirasida bajarilishi kerak bo'lgan kundalik, ixtiyoriy bo'lmagan harakatlarni bajarish yoki tezlashtirishga undash uchun bevosita yoki bilvosita beriladigan to'lov shakli.

Rasmiyatchilikni soddalashtirish uchun to'lovlar misol sifatida davlat mansabdor shaxsiga qabul qiluvchi qonuniy huquqqa ega bo'lgan ruxsatnomalar, litsenziyalar yoki vizalar olish yoki tezlashtirish, politsiya himoyasini olish, pochta xizmatini olish yoki qonuniy huquqqa ega bo'lgan kommunal xizmatlardan foydalanish uchun to'lovla qilishi kiradi (quvvat yoki suv kabi).

Hatto davlat mansabdor shaxsi tomonidan talab qilingan bo'lsa ham yoki agar to'lov amalga oshirilmasa Davlat amaldori Kompaniyaga nisbatan salbiy harakatlar bilan tahdid qilgan taqdirda ham Kompaniya tomonidan Hajmidan qat'i nazar soddalashtirish uchun to'lovlar qat'ian man etiladi.

Jamiyat Xodimga rasmiyatchilikni soddalashtirish maqsadida miqdoridan qat'i nazar, to'lovlarni amalga oshirishni, shuningdek, bunday to'lovlarni yashirishni yoki niqoblashni taqiqlaydi.

Jamiyat Xodimga rasmiyatchilikni soddalashtirish maqsadida miqdoridan qat'i nazar, to'lovlarni amalga oshirishni, shuningdek, bunday to'lovlarni yashirishni yoki niqoblashni taqiqlaydi.

Tahdidlar va majburlash

Ba'zi hollarda pora majburlash choralarini qo'llash orqali talab qilinishi mumkin. Majburlash shaxsiga nisbatan uning xohishiga qarshi to'lovni amalga oshirish yoki qimmatbaho narsalarni berishga majburlash maqsadida zo'ravonlik, ozodlikdan mahrum qilish yoki shunga o'xshash ko'rinishda yoki boshqa jismoniy tahdiddan iborat bo'lishi mumkin. Ushbu Siyosatning maqsadlari uchun iqtisodiy bosim (moliyaviy yo'qotishlarga olib keladigan salbiy ta'sir tahdidi yoki faoliyatning sustlashishi)dan foydalanish majburlash hisoblanmaydi.

Majburlash choralarini qo'llash ehtimoli juda past bo'lishiga qaramasdan Jamiyat Xodimlardan majburlash ostida o'zlarining yoki uchinchi shaxsning xavfsizligini xavf ostiga qo'yishini talab qilmaydi. Biroq Jamiyat o'ziga nisbatan majburlov choralari qo'llanilayotgan shaxsdan Xodimlarni himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish va bunday hodisalarning takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida zudlik bilan Komplayens xizmatiga xabar berishini (iloji bo'lsa, voqea to'g'risida yozma hisobot tayyorlashni) talab qiladi. Majburiy amalga oshirilgan to'lovlar Jamiyatning moliyaviy hujjatlarida (ya'ni, kitoblar va qaydlarda) aniq aks ettirilishi kerak.

7. Ichki hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi

Ichki hujjatlarning ishlab chiqish va kelishish jarayonida Jamiyatning Komplayens xizmati korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish uchun imkoniyat yaratuvchi korrupsiyaviy omillar mavjudligi va ularni hujjatlardan chiqarib tashlash maqsadida ekspertiza o'tkazadi.

8. Jamiyat faoliyati sohasiga yangi texnologiyalarni joriy etish

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish maqsadida jamiyat xodimlari o'z funksiyalari va lavozim majburiyatlarini axborot texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshiradi (agar imkoni mavjud bo'lsa).

Davlat xaridlari doirasida tanlov savdolarini o'tkazishda Jamiyat xodimlari axborot texnologiyalaridan foydalanadi va tanlov savdolari ishtirokchilari bilan o'zaro aloqani elektron shaklda onlayn rejimida boshqa elektron tizimlar bilan integratsiya qilish imkoniyatini qo'llagan holda amalga oshiradi.

Jamiyatdagi faoliyatni videoqayd qilish va uning translyatsiyasi

Jamiyat binolarida xodimlar faoliyatini nazorat qilish maqsadida audio va videoyozuv kameralari o'rnatilib, ulardagi yozuvlar Jamiyatning mas'ul xodimlari tomonidan ko'rib boriladi.

Jamiyatning Internet tarmog'idagi rasmiy saytlarida korrupsiya xavf-xatari yuqori bo'lgan ayrim jarayonlarning onlayn translyatsiyasi joylashtirilishi mumkin (xususan, xodimlar bilan suhbat o'tkazish, ularni testdan o'tkazish, komissiyalar yig'ilishi va h.k.)

9. Hisobot hujjatlari va hisobot berish

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni hujjatlariga, jumladan, AQSHning "Chet eldagi korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni (FCPA)ga muvofiq, Jamiyat o'z buxgalteriya kitoblari hamda yozuvlarini barcha bitimlarni to'g'ri aks ettiradigan va hech qanday chalg'ituvchi yoki haqiqatga mos kelmaydigan ma'lumotlarga ega bo'lmagan tarzda yuritishi shart.

Barcha bitimlar to'liq va har qanday to'lovning maqsadi hamda hajmi aniq ko'rinadigan tarzda qayd etilishi lozim. Biron-bir maqsad uchun hech qanday yashirin yoki qayd etilmagan pul jamg'armalari yoki aktivlar yaratilishi mumkin emas. Jamiyatning qayd hujjatlarida va hisobotlarida biron-bir maqsad uchun noto'g'ri, chalg'ituvchi yoki haqiqatga mos kelmaydigan yozuvlar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

10. Jamiyatning korrupsiyaga qarshi siyosati to'g'risida xodimlar va uchinchi shaxslarning xabardorligini ta'minlash

Jamiyat korrupsiyaviy xavf-xatarlarni qisqartirish va jamiyat xabardorligini oshirish maqsadida mazkur Siyosat va o'zlari tomonidan amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarga oid asosiy axborotlarni rasmiy veb-saytlarida joylashtiradi.

Jamiyat barcha kuch va imkoniyatlarini xodimlari va boshqa manfaatdor shaxslarga quyidagilar orqali O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi qonunchiligi normalari, shuningdek joriy etilgan korrupsiyaga qarshi tamoyillar, chora-tadbirlar va talablar to'g'risida xabar berish va ularni tushuntirishga sarflaydi:

- Jamiyat rahbariyati tomonidan elektron manzil va boshqa aloqa vositasi orqali Jamiyatda xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi qabul qilingan normalar va talablarga rioya qilinishi muhim ekanligiga doir doimiy xabarlar yuborish;
- Jamiyat xodimlarini Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha o'qitishga doir rejaga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish asoslari bo'yicha muntazam va tizimli ravishda bir yilda kamida bir marta o'qitilishi hamda testdan o'tkazilishini ta'minlash;

- Yangi xodimlarni ishga qabul qilayotganda ushbu Siyosat va Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashishga doir boshqa ichki hujjatlari bilan albatta tanishtirgan holda, ular uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha majburiy kurslarni tashkil etish;
- Jamiyatdagi korrupsiya xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi o'qitishning qo'shimcha dasturlari belgilanadi. O'tkazilgan o'quv kurslari/treninglarga oid ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda Jamiyatning Kadrlar bo'limida saqlanadi;
- mavzuga doir audio va videoroliklar hamda Jamiyat xodimlari va fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashish va ularda korrupsiyaga nisbatan muvofiqlik munosabatini shakllantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi xabardorligini oshirishga qaratilgan boshqa axborot materiallaridan foydalangan holda korrupsiyaga qarshi kampaniyalar tashkil qilish;
- mazkur Siyosat qoidalarini qo'llash yoki korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar va tartib-taomillarni amalga oshirish bilan bog'liq savollar tug'ilganda, Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi tomonidan Jamiyat xodimlariga maslahatlar berish;
- tasdiqlangan reja asosida Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi tomonidan Jamiyatda korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni faol tarzda targ'ib qilish;
- Jamiyat xodimlari mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qoidalarni kiritish;
- Jamiyat mazkur Siyosat kuchga kirgan vaqtdan boshlab Jamiyatning yangi xodimlari bilan tuziladigan, shuningdek shartlarni qayta ko'rib chiqish doirasida xodimlarning amaldagi mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qoidalarni kiritish;
- Jamiyat kontragentlari, hamkorlari, xayriya qiluvchilari, homiylari bilan tuziladigan shartnomalarga korrupsiyaga qarshi shartlarni kiritish.

Korrupsiyaga qarshi shartlar mazkur Siyosat kuchga kirgan vaqtdan boshlab jamiyatning yangi kontragentlari, hamkorlari, xayriya qiluvchilari, homiylari bilan tuziladigan shartnomalarga kiritiladi. Korrupsiyaga qarshi shartlar jamiyatning barcha shartnomalariga kiritiladi (elektron do'kon, elektron auksion orqali xarid natijalari bo'yicha va davlat tabiiy monopoliyalari (pochta, elektr energiyasi, gaz ta'minoti, suv ta'minoti, temir yo'llari, havo yo'llari va h.k.) bilan tuziladigan shartnomalar bundan mustasno). Korrupsiyaga qarshi shartlar mazkur Siyosat qabul qilinishidan oldin tuzilgan shartnomalarga shartlarni qayta ko'rib chiqish doirasida yoki tashabbusga ko'ra kiritiladi.

12. O'rganish, tekshiruv va monitoring o'tkazish

Turli tekshiruvlar, o'rganishlar, monitoring o'tkazishda (keyingi o'rinlarda – tekshiruv obyektlari) Jamiyat xodimlari:

- manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishiga yo'l qo'ymasligi;
Umumiy masalalar boshqarmasi Kompaniyada barcha turdagi Xayriya va Tijorat homiyliklariga nisbatan amalga oshirilgan barcha operatsiyalarni ro'yxatdan o'tkazadigan markazlashtirilgan Xayriya va Tijorat homiyligi reestrini *4-ilovaga* muvofiq yuritishi shart. Umumiy masalalar boshqarmasi boshlig'i yoki u tomonidan tayinlangan shaxs Xayriya va Tijorat homiyligi barcha buyurtmanomalarini, shuningdek, ularni ko'rib chiqish va tasdiqlash jarayoni bilan bog'liq barcha hujjatlar va ma'lumotlarni, shu jumladan, buyurtmanomalar shakllarini (va tegishli hujjatlarni), Kompaniya boshqaruvining bayonnoma qarorini yagona reestrda ro'yxatdan o'tkazish uchun javobgardir..

Oluvchi Umumiy masalalar boshqarmasiga Xayriya yoki Tijorat homiyligi amalga oshirilganini tasdiqlovchi hujjatlarni yuborishlari shart, masalan:

- Xayriya (yoki Tijorat homiyligi) xarajatlari va u bilan bog'liq boshqa xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlar
- yangiliklar ommaviy axborot vositalarida Xayriya (yoki Tijorat homiyligi) yoki u bilan bog'liq pulli badallarni amalga oshirilganini tavsiflovchi chiqishlar;
- Xayriya yoki Tijorat homiylik tadbirlari yoki voqeasi to'g'risida suratli yoki videohisobotlar.

9. Tadbirlarda ishtirok etish


Jamiyat xodimlarining xalqaro va boshqa Jamiyatlar taklifiga ko'ra ish faoliyati yuzasidan o'tkaziladigan tadbirlari (ko'rgazmalar, seminarlar, konferensiyalar va h.k.)da ishtirok etishiga quyidagi shartlarga rioya qilgan taqdirda ruxsat etiladi:

- tadbir O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, mazkur Siyosat tamoyillari va talablari hamda Jamiyatning boshqa ichki hujjatlariga mos kelsa;
- tadbir jamiyat yoki taklif etgan tomonning qonuniy manfaatlariga xizmat qilsa;
- tadbir jamiyat xodimlari tomonidan u yoki bu qarorlar qabul qilinishiga ta'sir qilmasligi, biror-bir noqonuniy afzalliklarni qo'lga kiritishni (masalan, buyurtmachilarga tadbirni o'tkazayotgan loyiha-tadqiqot Jamiyatiga murojaat qilishni tavsiya qilish) ko'zlagan yashirin noqonuniy mukofotlash maqsadi bo'lmasligi lozim;
- tadbir bunday tadbirda ishtirok etishga doir ma'lumotlar oshkor qilingan taqdirda jamiyat va taklifni qabul qiluvchi yoki taklif etayotgan tomon mavqei uchun xatar tug'dirmasligi lozim;
- tadbir umume'tirof etilgan ilmiy va ishbilarmonlik amaliyotiga mos kelishi hamda ko'ngilochar mazmundagi xususiyat kasb etmasligi lozim;
- tadbir mohiyati va qiymatiga ko'ra o'rinli bo'lishi, haddan ziyod hashamatli, qimmat, g'ayriodatiy bo'lmasligi va tez-tez takrorlanib turmasligi lozim.


Agar ishbilarmonlik tadbirlari (seminar, simpozium, davra suhbatlari va h.k.) tashkilotchisi Jamiyat o'zi bo'lsa, u holda bunday ishbilarmonlik tadbiri ushbu siyosatda qayd etilgan talablarga mos kelishi lozim.


Shakllar va ilovalar

Xayriya va tijoriy homiylik bo'yicha siyosatiga 1-ilova
Xayriya protsedurasi
SXEMASI



Tijorat homiyligi protsedurasi
SXEMASI





Xayriya va tijorat homiyligi bo'yicha siyosatiga
2-ilova

Xayriya
BUYURTNOMASI

Reg. №.		Sana	(kun/oy/yil)
Umumiy ma'lumot			
1.	Mo'ljallanayotgan Xayriyani tavsiflab bering		

2.	Mo'ljallanayotgan Xayriya summasini ko'rsating		
3.	Buyurtma bir martalik yoki muntazam xayriya bo'yicha kiritilmoqda	Doimiy ☐ Bir marotaba ☐	
4.	Xayriya obyekti yoki Oluvchisini tanlash u-bu kimning iltimosi yoki tavsiyasiga asoslanganmi?	Xa ☐ Yo'q ☐ agar "ha" bo'lsa, batafsil tushuntirish bering	
5.	Xayriyaga yozma murojaat mavjudmi?	Xa ☐ Yo'q ☐ agar "ha" bo'lsa, yozma murojaatning nusxasini mazkur buyurtnomaga ilova qiling	
6.	Kompaniya bugungi kunda Xayriyaga daxldor bo'lgan biron-bir tashkilot bilan kelgusida shartnoma (kelishuv, bitim) tuzish to'g'risida muzokaralar olib borayotgani haqida ma'lumotga egamisiz?	Xa ☐ Yo'q ☐	
Maqsad			
7.	Xayriya ko'rsatiladigan Oluvchining to'liq yuridik manzilini ko'rsating		
8.	Oluvchi ro'yxatdan o'tgan notijorat tashkiloti hisoblanadimi?	Xa ☐ Yo'q ☐ agar "ha" bo'lsa, Oluvchining notijorat maqomini isbotlovchi hujjatni (davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida guvohnomani) ilova qiling	
9.	Oluvchining bog'lanish mumkin bo'lgan mas'ul shaxsi (vakili) to'g'risida ma'lumotlarni ko'rsating	F.I.Sh.	
		Telefon	
		E-mail	
10.	Oluvchining STIRini ko'rsating		
Xayriya to'g'risida batafsil ma'lumotlar			
11.	Pul mablag'lari shaklidagi xayriya nazarda tutilmoqdami?	Xa ☐ Yo'q ☐	
12.	Xayriya natura shaklida ifodalangan tovarlar yoki xizmatlar sifatida taqdim etiladimi?	Xa ☐ Yo'q ☐ agar "ha" bo'lsa, tavsiflang /	

		agar “yo‘q” bo‘lsa, keyingi savolga o‘ting
13.	Xayriya mablag‘lari bevosita Oluvchining hisob raqamiga o‘tkaziladimi?	Xa ☐ Yo‘q ☐
14.	Oluvchi mo‘ljallangan Xayriyaga daxldor uchinchi shaxslarni (subpudratchilar, subagentlar va h.k.) jalb etishi yoki etmasligi to‘g‘risida biron-bir ma‘lumotga egamisiz?	Xa ☐ Yo‘q ☐
		agar “ha” bo‘lsa, ularning Xayriyadagi o‘mini tavsiflab bering
15.	Kompaniya yuqorida ko‘rsatilgan Oluvchiga muqaddam biron-bir Xayriya qilgan-qilmagani to‘g‘risida ma‘lumotga egamisiz?	Xa ☐ Yo‘q ☐
16.	Oluvchi Kompaniyaga biron-bir tarzda bog‘liqmi yoki ta’sir o‘tkazishi mumkinmi?	Xa ☐ Yo‘q ☐
		agar “ha” bo‘lsa, mavjud bog‘liqlikni yoki ta’sir o‘tkazish mumkinligini tavsiflab bering
Davlat bilan bog‘liqlik		
17.	Oluvchi davlat tashkiloti ekanligi yoki emasligi to‘g‘risida biron-bir ma‘lumotga egamisiz?	Xa ☐ Yo‘q ☐
18.	Oluvchi Kompaniyani nazorat qiluvchi Davlat xodimiga biron-bir tarzda bog‘liq ekanligi yoki unga ta’sir o‘tkazishi mumkinligi to‘g‘risida ma‘lumotga egamisiz?	Xa ☐ Yo‘q ☐
		agar “ha” bo‘lsa, mavjud bog‘liqlikni yoki ta’sir o‘tkazish mumkinligini tavsiflab bering
19.	O‘zingiz ahamiyatga ega deb hisoblagan boshqa ma‘lumotlarni keltiring yoki ilova qiling	
Umumiy masalalar boshqarmasi tomonidan kiritildi		
F.I.Sh.		
Lavozimi		
Imzo		
Buxgalteriya hisobi xizmati bilan kelishildi		
F.I.Sh.		
Lavozimi		

Imzo	
Komplayens xizmati bilan kyelishildi	
F.I.Sh.	
Lavozimi	
Imzo	

Xayriya va tijorat homiyligi bo'yicha siyosatiga
3-ilova

Tijorat homiyligi

BUYURTNOMASI

Reg No.		Sana	(kun/oy/yil)
Umumiy ma'lumot			
1.	Mo'ljallanayotgan Tijorat homiyligini tavsiflab bering		
2.	Mo'ljallanayotgan Tijorat homiyligi summasini ko'rsating		
3.	Buyurtnoma bir martalik yoki muntazam homiylik bo'yicha kiritilmoqda	Muntazam ☐ Bir martalik ☐	
4.	Tijorat homiyligi obyekti yoki Oluvchisini tanlash u-bu kimning iltimosi yoki tavsiyasiga asoslanganmi?	Ha ☐ Yo'q ☐	
		agar "ha" bo'lsa, batafsil tushuntirish bering	
5.		Ha ☐ Yo'q ☐	

	Tijorat homiyligiga yozma murojaat mavjudmi	agar “ha” bo‘lsa, yozma murojaatning nusxasini mazkur buyurtnomaga ilova qiling	
6.	Kompaniya bugungi kunda Tijorat homiyligiga daxldor bo‘lgan biron-bir tashkilot bilan kelgusida shartnoma (kelishuv, bitim) tuzish to‘g‘risida muzokaralar olib borayotgani haqida ma’lumotga egamisiz?	Ha ☐	Yo‘q ☐
Maqsad			
7.	Tijorat homiyligi ko‘rsatiladigan Oluvchining to‘liq yuridik manzilini ko‘rsating		
8.	Oluvchi ro‘yxatdan o‘tgan notijorat tashkiloti hisoblanadimi?	Ha ☐	Yo‘q ☐
		agar “ha” bo‘lsa, Oluvchining notijorat maqomini isbotlovchi hujjatni (davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida guvohnomani) ilova qiling	
9.	Oluvchining bog‘lanish mumkin bo‘lgan mas’ul shaxsi (vakili) to‘g‘risida ma’lumotlarni ko‘rsating	F.I.Sh.	
		Telefon	
		E-mail	
10.	Oluvchining STIRini ko‘rsating		
Xayriya to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar			
11.	Pul mablag‘lari shaklidagi Tijorat homiyligi nazarda tutilmoqdam?	Ha ☐	Yo‘q ☐
12.	Tijorat homiyligi natura shaklida ifodalangan tovarlar yoki xizmatlar sifatida taqdim etiladimi?	Ha ☐	Yo‘q ☐
		agar “ha” bo‘lsa, tavsiflang /agar “yo‘q” bo‘lsa, keyingi savolga o‘ting	
13.	Tijorat homiyligi mablag‘lari bevosita Oluvchining hisob raqamiga o‘tkaziladimi?	Ha ☐	Yo‘q ☐
14.	Oluvchi mo‘ljallangan Tijorat homiyligi daxldor uchinchi shaxslarni (subpudratchilar, subagentlar va h.k.) jalb etishi yoki etmasligi to‘g‘risida biron-bir ma’lumotga egamisiz?	Ha ☐	Yo‘q ☐
		agar “ha” bo‘lsa, ularning Tijorat homiyligidagi o‘rnini tavsiflab bering	

15.	Kompaniya yuqorida ko'rsatilgan Oluvchiga muqaddam biron-bir Tijorat homiyligi qilgan-qilmagani to'g'risida ma'lumotga egamisiz?	Ha ☐	Yo'q ☐
16.	Oluvchi Kompaniyaga biron-bir tarzda bog'liqmi yoki ta'sir o'tkazishi mumkinmi?	Ha ☐	Yo'q ☐
		agar "ha" bo'lsa, mavjud bog'liqlikni yoki ta'sir o'tkazish mumkinligini tavsiflab bering	
17	Kompaniya nomidan Oluvchi tomonidan mo'ljallanayotgan tadbirda (agar tadbir joiz bo'lsa) kim ishtirok etadi?		
Davlat bilan bog'liqlik			
18.	Oluvchi davlat tashkiloti ekanligi yoki emasligi to'g'risida biron-bir ma'lumotga egamisiz?	Ha ☐	Yo'q ☐
19.	Oluvchi Kompaniyani nazorat qiluvchi Davlat xodimiga biron-bir tarzda bog'liq ekanligi yoki unga ta'sir o'tkazishi mumkinligi to'g'risida ma'lumotga egamisiz?	Ha ☐	Yo'q ☐
		agar "ha" bo'lsa, mavjud bog'liqlikni yoki ta'sir o'tkazish mumkinligini tavsiflab bering	
20.	O'zingiz ahamiyatga ega deb hisoblagan boshqa ma'lumotlarni keltiring yoki ilova qiling		
Dilerlarni rivojlantirish, marketing va piar direktsiyasi tomonidan kiritildi			
F.I.Sh.			
Lavozimi			
Imzo			
Buxgalteriya hisobi xizmatibilan kelishildi			
F.I.Sh.			
Lavozimi			
Imzo			
Komplayens xizmati bilan kyelishildi			
F.I.Sh.			

Lavozimi	
Imzo	

Xayriya va tijorat homiyligi bo'yicha siyosatiga
4-ilova

*Xayriya va Tijorat homiyligi bo'yicha
REESTR*

Sana: _____

No.	Ko'maklashuv turi	Oluvchining nomi	Xayriya qiluvchi / Homiy nomi	Ko'mak ko'rsatish uchun asos	Ko'maklashuvd an maqsad	Shartnoma sanasi va ro'yxatd an o'tgan raqami	To'lov summasi	Amalda to'langan
1.								
2.								
3.								

Izoh:

N^o –tartib raqami

Ko'maklashuv turi - xayriya yoki tijorat homiyligi);

Oluvchining nomi – mablag'lar oluvchsining to'liq yuridik nomi);

Xayriya qiluvchi / Homiyning nomi – xayriya yoki tijoriy homiylik qiluvchi (Kompaniya va/yoki nazorat ostidagi korxona) ning to'liq yuridik nomi;

Ko'mak ko'rsatish uchun asos – “UzautoMotors” AJ boshqaruvining bayonnomasining sanasi va qayd raqami ko'rsatilgan;

Ko'maklashuvd an maqsad – xayriya yoki tijoriy homiylikning maqsadga yo'naltirilganligi, masalan, ta'lim, fan, madaniyat, san'at sohasidagi yoki jismoniy tarbiya va ommaviy sport hamda shu kabi sohalardagi faoliyatni qo'llab-quvvatlash;

Shartnoma sanasi va raqami – shartnomani indentifikatsiyalash uchun shartli rekvizitlarini ko'rsatish;

To'lov summasi – shartnomaga muvofiq summa;

Amalda to'langan – Oluvchiga amalda ko'rsatilgan ko'mak.

Xayriya va tijoriy homiylik bo'yicha siyosatiga 5-ilova

XAYRIYA QILISH TO'G'RSIDA NAMUNAVIY SHARTNOMA

№ _____

_____ “ _____ ” _____ 20__

Bundan buyon “XAYRIYA QILUVCHI” deb ataluvchi "UzautoMotors" AJ nomidan [shartnomani imzolash vakolatini beruvchi hujjat] asosida faoliyat yurituvchi [imzo chekuvchining lavozimi va F.I.Sh.], bir tomondan,

va bundan buyon “XAYRIYA OLUVCHI” deb ataluvchi [Xayriya oluvchining nomi] nomidan [shartnomani imzolash vakolatini beruvchi hujjat] asosida faoliyat yurituvchi [imzo chekuvchining lavozimi, F.I.Sh.], boshqa tomondan,

birgalikda “TARAFLAR” deb ataluvchilar, “UzautoMotors” AJ boshqaruvinining [sana]dagi [ro'yxatga olish raqami]-sonli yig'ilish bayonnomasini qo'llab, quyidagi mazmunda mazkur shartnomani tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. XAYRIYA QILUVCHI tomonidan ko'ngilli ravishda [keyingi o'rinlarda – XAYRIYA deb yuritiladi] [masalan, pul mablag'larini] [Xayriyaning aniq summasi ko'rsatilsin] _____ sum miqdoridagi pul mablag'ini XAYRIYA OLUVCHIGA [Xayriya oluvchining murojaati ko'rsatilsin] ehson qilinishi (xayriyaning aniq maqsadi ko'rsatilsin) Shartnomaning predmeti hisoblanadi.

1.2. XAYRIYA faqat ushbu Shartnomaning 1.1-bandida ko'rsatilgan maqsadlar uchun beg'araz taqdim etiladi.

2. TARAFLARNING HUQUQLARI

2.1. XAYRIYA OLUVCHI XAYRIYANI olgunga qadar uni rad etishga haqlidir. XAYRIYANI rad etish yozma shaklda amalga oshiriladi va XAYRIYA QILUVCHI tomonidan yozma shaklda rad etish olingan paytdan boshlab mazkur shartnoma bekor qilingan hisoblanadi.

2.2. XAYRIYA QILUVCHI XAYRIYA OLUVCHIGA XAYRIYADAN maqsadli foydalanishni tekshirish zarurligi to'g'risida so'rov yuborish orqali, XAYRIYA OLUVCHISI tomonidan XAYRIYANING maqsadli foydalanilishini tekshirishga haqlidir.

2.3. XAYRIYA maqsadga muvofiq ishlatilmaganligi faktlari aniqlangan taqdirda XAYRIYA QILUVCHI XAYRIYA OLUVCHINING maqsadga muvofiq ishlatilmagan barcha xayriya mablag'larini XAYRIYA QILUVCHIGA qaytarish yo'li bilan mazkur shartnomani bir tomonlama ravishda bekor qilishga haqlidir.

3. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. XAYRIYA QILUVCHI mazkur shartnomaning 1.1-bandostiga ko'ra XAYRIYANI XAYRIYA OLUVCHIGA mazkur shartnomaning 8-bandida qayd etilgan rekvizitlarga asosan

mazkur shartnoma tuzilgan sanadan boshlab [raqam] bank kunida o'tkazib berish yoki topshirishni o'z zimmasiga oladi.

3.2. XAYRIYA OLUVCHI quyidagilarni o'z zimmasiga oladi:

3.2.1. XAYRIYANI qabul qilish;

3.2.2. olingan XAYRIYADAN faqat ushbu shartnomada ko'zda tutilgan maqsadlarda foydalanish;

3.2.3. ushbu shartnoma bilan bog'liq ravishda tayyorlanadigan, tasdiqlanadigan yoki rasmiylashtiriladigan barcha hujjatlarni, shu jumladan, XAYRIYA bilan bog'liq hujjatlarni istisnosiz to'liq, to'g'ri va aniq bo'lishini ta'minlash;

3.2.4. buxgalteriya hisobining to'g'riligini ta'minlash, shuningdek, XAYRIYA QILUVCHIGA XAYRIYA shaklidagi mablag'lardan foydalanish to'g'risidagi hisobotlarni [masalan: xayriya kompaniyasi yakuni bo'yicha] [sana] gacha [masalan: xayriya aksiyasi] natijalari bo'yicha tayyorlash va taqdim etish;

3.2.5. XAYRIYA hisobidan tovarlar(ishlar, xizmatlar)ni xarid qilish uchun yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnoma(kontrakt)larning to'g'riligi va asoslanganligini ta'minlash;

3.2.6. Xayriyadan to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita yoxud boshqa ko'rinishda inson huquqlari sohasidagi tamoyillarni, majburiy va bolalar mehnatining har qanday shakllarini istisno etmagan holda buzilishlarida foydalanmaslik;

3.2.7. XAYRIYA QILUVCHIning so'rovini olgan sanadan boshlab besh kun ichida XAYRIYA QILUVCHI XAYRIYAdan maqsadli foydalanilganligini tekshirishi uchun ushbu shartnoma bilan bog'liq barcha ma'lumot va hujjatlarni XAYRIYA QILUVCHIGA taqdim etilishini ta'minlash;

3.2.8. mazkur shartnomaning 4-bandida ko'rsatib o'tilgan korrupsiyaga qarshi qo'shimchaga rioya etish;

3.2.9. ushbu shartnoma XAYRIYAdan maqsadga muvofiq foydalanilmaganligi sababli bekor qilingan taqdirda, ikki kun ichida belgilangan maqsadda foydalanilmagan XAYRIYAni to'laligicha XAYRIYA QILUVCHIGA qaytarish.

4. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR

4.1. Ushbu orqali XAYRIYA OLUVCHI XAYRIYA QILUVCHIning rasmiy veb-saytidagi "Komplayens" bo'limida joylashtirilgan komplayens-dasturi bilan tanishganini va uni to'liq anglaganini tasdiqlaydi

4.2. XAYRIYA OLUVCHIning manfaatlari yo'lida ish yuritadigan uning egalari, direktorlari, mansabdor shaxslari, xizmatchilari va boshqa shaxslarni cheklamagan holda ushbu korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarning kafolatlariga rioya qilinish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

4.3. XAYRIYA OLUVCHI to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ushbu shartnoma bilan bog'liq korrupsion harakatlarni amalga oshirmaslik yoki XAYRIYAdan korrupsion maqsadlarda foydalanmaslik majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

4.4. XAYRIYA OLUVCHI XAYRIYA QILUVCHIning quyidagilar to'g'risida yozma ravishda darhol xabardor qilishni o'z zimmasiga oladi:

[xususiy tashkilotlar uchun biron-bir davlat xodimi XAYRIYA OLUVCHIning mansabdor shaxsi yoki xodimi etib tayinlansa yoki XAYRIYA OLUVCHIning korxonasida to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ishtirokchilik ulushini xarid qilsa];

XAYRIYA OLUVCHIning mansabdor shaxsi XAYRIYA QILUVCHIning komplayensdasturiga zid bo'lgan harakatlarni amalga oshirgani uchun sudlanishi yoki bunday harakatlarni amalga oshirishda aybdor deb topilishining har bir holati to'g'risida;

mazkur korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarning buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan faktlar to'g'risida, XAYRIYA QILUVCHI XAYRIYA OLUVCHIGA bunday faktlar to'g'risida ma'lum qilgan taqdirda esa - korrupsiyaga qarshi majburiyatlarni bajarmaslik faktlari bo'yicha tekshiruv o'tkazish va yo'l qo'yilgan buzilishlarni bartaraf etish choralarini ko'rish.

4.5. XAYRIYA OLUVCHI uning boshqaruv organlarida davlat bilan bog'liq shaxslar mavjud bo'lgan taqdirda, bu fakt XAYRIYAni biron-bir noqonuniy imtiyozlar asosida olishga ta'sir ko'rsatmasligini kafolatlaydi.

4.6. XAYRIYA OLUVCHI mazkur korrupsiyaga qarshi qo'shimchani haqiqiy yoki ehtimolli buzilishi hollarida XAYRIYA QILUVCHIGA vijdonan yordam va ko'mak ko'rsatishni, shu jumladan, uning egalari, direktorlari va mansabdor (mas'ul) shaxslari o'rtasida so'rovnoma o'tkazish imkoniyatini ta'minlashni o'z zimmasiga oladi.

4.7. Agar XAYRIYA QILUVCHI XAYRIYA OLUVCHI tomonidan ushbu korrupsiyaga qarshi qo'shimcha buzilganini aniqlasa, XAYRIYA QILUVCHI shartnomani ijro etishdan bosh tortishi va uni bir tomonlama suddan tashqari tartibda XAYRIYA OLUVCHIGA bu haqda tegishli yozma bildirishnoma yuborish orqali bekor qilinishini talab qilishga haqli.

5. TARAFLARNING MAS'ULIYATI

5.1. TARAFLAR, agar mazkur shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, shartnoma majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganlik uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar javobgar hisoblanadilar.

5.2. XAYRIYA OLUVCHI, agar ushbu shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, olingan pul mablag'laridan maqsadga nomuvofiq foydalanganligi uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgardir.

6. NIZOLARNI HAL QILISH

6.1. Mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tuzilgan, talqin etiladi va tartibga solinadi.

6.2. TARAFLAR ushbu shartnomadan kelib chiqishi mumkin bo'lgan har qanday nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal qiladilar. Agar TARAFLAR muzokaralar yo'li bilan kelishuvga erishmasa, nizolar Toshkentning tumanlararo iqtisodiy sudida hal etiladi.

7. YAKUNIY QOIDALAR

7.1. Mazkur shartnoma ikkala TARAFLAR tomonidan imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va TARAFLAR ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

7.2. Mazkur shartnomaning barcha ilovalari uning ajralmas qismi hisoblanadi va TARAFLAR tomonidan imzolanadi.

7.3. Mazkur shartnomaning shartlari yozma shaklda tayyorlanib, ikkala TARAFLAR tomonidan imzolangan holdagina o'zgartirilishi mumkin.

7.4. Ushbu shartnoma bir xil yuridik kuchga ega holda har bir TARAFLAR uchun bitta nuxsadan tuzildi.

7.5. TARAFLAR o'zlarining yuridik manzillari, telefon raqamlari va boshqa rekvizitlari o'zgargan holda ikki kundan kechiktirmasdan bu haqda bir-birini xabardor qilishlari shart.

7.6. TARAFLAR o'rtasidagi barcha yozishmalar, shu jumladan, so'rovlar xat, telegramma, teleks, faksogramma yuborish orqali, shuningdek, elektron pochta orqali amalga oshiriladi. TARAFLAR elektron pochta orqali yo'llangan elektron xabarlarni ham hujjat sifatida e'tirof etadilar.

8. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

XAYRIYA QILUVCHI

XAYRIYA OLUVCHI

Xayriya va tijoriy homiylik bo'yicha ciyosatiga 6-ilova

HOMIYLIK YORDAMINI KO'RSATISH TO'G'RI SID A NAMUNAVIY SHARTNOMA

№ _____

_____ sh.

“ _____ ” _____ 20__ y.

Bundan buyon “HOMIY” deb ataluvchi “UzautoMotors” AJ nomidan [shartnomani imzolash vakolatini beruvchi hujjat] asosida faoliyat yurituvchi [imzo chekuvchining lavozimi, F.I.Sh.], bir tomondan, va bundan buyon “HOMIYLIK OLUVCHI” deb ataluvchi [Homiylk oluvchining nomi] nomidan [shartnomani imzolash vakolatini beruvchi hujjat] asosida faoliyat yurituvchi [imzo chekuvchining lavozimi, F.I.Sh.], boshqa tomondan, birgalikda “TARAFLAR” deb ataluvchilar, “UzautoMotors” AJ boshqaruvining [sana]dagi [ro'yxatga olish raqami]-sonli yig'ilish bayonnomasini qo'llab, quyidagi mazmunda mazkur shartnomani tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1 . HOMIYLIK QILUVCHI tomonidan HOMIYLIK OLUVCHIGA (bundan buyon – “HOMIYLIK”) [Homiyluk oluvchining murojaati ko‘rsatilsin] ga ko‘ra [homiylukning aniq maqsadi ko‘rsatilsin] maqsadida [Homiylukning aniq summasi ko‘rsatilsin] sum miqdorida beg‘araz moliyaviy yordam ko‘rsatish shartnomaning predmeti hisoblanadi.

2. TARAFLARNING HUQUQLARI

2.1. HOMIYLIK OLUVCHI HOMIYLIKni olgunga qadar uni rad etishga haqlidir. HOMIYLIKni rad etish yozma shaklda amalga oshiriladi va HOMIYLIK QILUVCHI tomonidan yozma shaklda rad etish olingan paytdan boshlab mazkur shartnoma bekor qilingan hisoblanadi.

2.2 HOMIYLIK QILUVCHI HOMIYLIK OLUVCHIGA HOMIYLIKDAN maqsadli foydalanishni tekshirish zarurligi to‘g‘risida so‘rov yuborish orqali, HOMIYLIK OLUVCHISI tomonidan HOMIYLIKNING maqsadli foydalanilishini tekshirishga haqlidir.

2.3 HOMIYLIKni maqsadga muvofiq ishlatmaslik faktlari aniqlangan taqdirda, HOMIYLIK QILUVCHI HOMIYLIK OLUVCHINING maqsadga muvofiq ishlatilmagan barcha homiyluk mablag‘lari HOMIYLIK QILUVCHIGA qaytarilishi bilan mazkur shartnomani bir tomonlama ravishda bekor qilishga haqlidir.

2.4 HOMIYLIK QILUVCHI tadbir uchun mablag‘ o‘tkazilgan paytdan boshlab ommaviy axborot vositalarida o‘z maqomini tadbir homiysi deb ko‘rsatishga, shuningdek, tadbirni amalga oshirish faoliyati bilan bog‘liq barcha tashkiliy tadbirlarda ishtirok etishga haqlidir.

3. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

3.1 HOMIYLIK QILUVCHI ushbu shartnomaning 1.1-bandostiga ko‘ra HOMIYLIKNI HOMIYLIK OLUVCHIGA mazkur shartnomaning 8-bandida qayd etilgan rekvizitlarga asosan mazkur shartnoma tuzilgan sanadan boshlab [raqam] bank kunida o‘tkazib berish yoki topshirishni o‘z zimmasiga oladi.

3.2 HOMIYLIK OLUVCHI quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

3.2.1 HOMIYLIKni qabul qilish;

3.2.2 olingan HOMIYLIKDAN faqat ushbu shartnomada ko‘zda tutilgan maqsadlarda foydalanish;

3.2.3 ushbu shartnoma bilan bog‘liq ravishda tayyorlanadigan, tasdiqlanadigan yoki rasmiylashtiriladigan barcha hujjatlarni, shu jumladan, HOMIYLIK QILUVCHINING HOMIYSI bilan bog‘liq hujjatlarni istisnosiz to‘liq, to‘g‘ri va aniq bo‘lishini ta‘minlash;

3.2.4 buxgalteriya hisobining to‘g‘riligini ta‘minlash, shuningdek HOMIYLIK QILUVCHIGA HOMIYLIK shaklidagi mablag‘lardan foydalanish to‘g‘risidagi hisobotlarni [natijalari bo‘yicha *masalan*: tadbirning] [sanagacha] hisobotlarni tuzish va taqdim etish;

3.2.5 HOMIYLIK hisobidan tovarlar(ishlar, xizmatlar)ni xarid qilish uchun yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnoma(kontrakt)larning to‘g‘riligi va asoslanganligini ta‘minlash;

3.2.6 HOMIYLIKdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita yoki boshqa ko‘rinishda inson huquqlari sohasidagi tamoyillarni, majburiy va bolalar mehnatining har qanday shakllarini istisno etmagan holda buzilishlarida foydalanmaslik;

3.2.7 HOMIYLIK QILUVCHIning so‘rovini olgan sanadan boshlab besh kun ichida HOMIYLIK QILUVCHI HOMIYLIKdan maqsadli foydalanilganligini tekshirishi uchun ushbu

shartnoma bilan bog'liq barcha ma'lumot va hujjatlarni HOMIYLIK QILUVCHIga taqdim etilishini ta'minlash;

3.2.8 mazkur shartnomaning 4-bandida ko'rsatib o'tilgan korrupsiyaga qarshi qo'shimchaga rioya etish;

3.2.9 ushbu shartnoma HOMIYLIKdan maqsadga muvofiq foydalanilmagani sababli bekor qilingan taqdirda, ikki kun ichida belgilangan maqsadda foydalanilmagan XOMIYLIKni to'raligicha HOMIYLIK QILUVCHIga qaytarish.

3.2.10 HOMIYLIK QILUVCHIga tadbirda ishtirok etish huquqini berish.

4. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR

4.1 Ushbu orqali HOMIYLIK OLUVCHI HOMIYLIK QILUVCHIning rasmiy veb-saytida "Komplayens" bo'limida joylashtirilgan komplayens-dasturi bilan tanishganini va uni to'liq anglaganini tasdiqlaydi

4.2 HOMIYLIK OLUVCHI, shu jumladan, ammo bu bilan cheklanmasdan, HOMIYLIK OLUVCHIning manfaatlarida ish yuritadigan egalari, direktorlari, mansabdor shaxslari, xizmatchilari va boshqa shaxslar ushbu korrupsiyaga qarshi bandning kafolatlarini bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

4.3 HOMIYLIK OLUVCHI to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ushbu shartnoma bilan bog'liq korrupsion harakatlarni amalga oshirmaslik yoki HOMIYLIKdan korrupsion maqsadlarda foydalanmaslik majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

4.4 HOMIYLIK OLUVCHI HOMIYLIK QILUVCHIni quyidagilar to'g'risida yozma ravishda darhol xabardor qilishni o'z zimmasiga oladi:

[xususiy tashkilotlar uchun biror-bir Davlat xodimi HOMIYLIK OLUVCHIning mansabdor shaxsi yoki xodimi etib tayinlansa yoki HOMIYLIK OLUVCHIning korxonasida to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ishtirokchilik ulushini xarid qilsa];

HOMIYLIK OLUVCHIning mansabdor shaxsi HOMIYLIK QILUVCHIning komplayens-dasturiga zid bo'lgan harakatlarni amalga oshirgani uchun sudlanishi yoki bunday harakatlarni amalga oshirishda aybdor deb topilishining har bir holati to'g'risida;

ushbu korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarini buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan faktlar to'g'risida, HOMIYLIK QILUVCHI HOMIYLIK OLUVCHIga bunday faktlar to'g'risida ma'lum qilgan taqdirda esa - korrupsiyaga qarshi majburiyatlarni bajarmaslik faktlari bo'yicha tekshiruv o'tkazish va yo'l qo'yilgan buzulishlarni bartaraf etish choralari ko'rish.

4.5 HOMIYLIK OLUVCHI uning boshqaruv organlarida davlat bilan bog'liq shaxslar mavjud bo'lgan taqdirda, bu fakt HOMIYLIKni olish va biron-bir noqonuniy imtiyozlarga ega bo'lishga ta'sir ko'rsatmasligini kafolatlaydi.

4.6 HOMIYLIK OLUVCHI ushbu korrupsiyaga qarshi qo'shimchani haqiqiy yoki ehtimolli buzilishida HOMIYLIK QILUVCHIga vijdonan yordam va ko'mak ko'rsatishni, shu jumladan, uning egalari, direktorlari va mansabdor (mas'ul) shaxslari o'rtasida so'rovnoma o'tkazish imkoniyatini ta'minlashni o'z zimmasiga oladi.

4.7 Agar HOMIYLIK QILUVCHI HOMIYLIK OLUVCHI tomonidan ushbu korrupsiyaga qarshi qo'shimchaning muayyan bir bandi talabalari buzilganini aniqlasa, HOMIYLIK QILUVCHI shartnomani ijro etishdan bosh tortishi va uni bir tomonlama suddan tashqari

tartibda HOMIYLIK OLUVCHIga bu haqda tegishli yozma bildirishnoma yuborish orqali bekor qilinishini talab qilishga haqli.

5. TARAFLARNING MAS'ULIYATI

5.1 TARAFLAR, agar mazkur shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, shartnoma majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganlik uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar javobgar hisoblanadilar.

5.2 HOMIYLIK OLUVCHI, agar ushbu shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, olingan pul mablag'laridan maqsadga nomuvofiq foydalanganligi uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgardir.

6. NIZOLARNI HAL QILISH

6.1 Mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tuzilgan, talqin etiladi va tartibga solinadi.

6.2 TARAFLAR ushbu shartnomadan kelib chiqishi mumkin bo'lgan har qanday nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal qiladilar. Agar TARAFLAR muzokaralar yo'li bilan kelishuvga erishmasa, nizolar Toshkentning tumanlararo iqtisodiy sudida hal etiladi.

7. YAKUNIY QOIDALAR

7.1 Mazkur shartnoma ikkala TARAF tomonidan imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va TARAFLAR ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

7.2 Mazkur shartnomaning barcha ilovalari uning ajralmas qismi hisoblanadi va TARAFLAR tomonidan imzolanadi.

7.3 Mazkur shartnomaning shartlari yozma shaklda tayyorlanib, ikkala TARAF tomonidan imzolangan holdagina o'zgartirilishi mumkin.

7.4 Ushbu shartnoma bir xil yuridik kuchga ega holda har bir TARAF uchun bitta nuxsadan tuzildi.

7.5 TARAFLAR o'zlarining yuridik manzillari, telefon raqamlari va boshqa rekvizitlari o'zgargan holda ikki kundan kechiktirmasdan bu haqda bir-birini xabardor qilishlari shart.

7.6 TARAFLAR o'rtasidagi barcha yozishmalar, shu jumladan, so'rovlar xat, telegramma, teleks, faksogramma yuborish orqali, shuningdek, elektron pochta orqali amalga oshiriladi. TARAFLAR elektron pochta orqali yo'llangan elektron xabarlarni ham hujjat sifatida e'tirof etadilar.

7.7 Mazkur shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga unda nazarda tutilgan qoidalar va/yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosidagina yo'l qo'yilishi mumkin.

8. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

HOMIYLIK QILUVCHI

HOMIYLIK OLUVCHI

Xayriya va tijorat homiyligi bo'yicha yo'riqnomaga 7-ilova

Skrining hisoboti

UzAuto	Sana	___/___/___ —	Reg. raq.	DD-20___ - ___
Qabul qiluvchi haqida ma'lumot				
Qabul qiluvchining nomi				
Davlat ro'yxatidan o'tkazish raqami va/yoki TIN				
Yuridik manzil				
Aksiyadorlar (muassislar) va ishtirok etish ulushi (1-daraja)	NOMI		Foiz sifatida ulush (10% dan ortiq ulush ko'rsatilgan)	
Aksiyadorlar (muassislar) va ishtirok etish ulushi (1-daraja)	NOMI		Foiz sifatida ulush (10% dan ortiq ulush ko'rsatilgan)	
Aksiyadorlar (muassislar) va ishtirok etish ulushi (1-daraja)	NOMI		Foiz sifatida ulush (10% dan ortiq ulush ko'rsatilgan)	
Rahbarlar, amaldorlar	F.I.Sh.		Lavozimi	
Tasdiqlash manbasi				
QIZIL BAYROQLAR				
Davlat amaldori bilan muloqot				

☐ Xa ☐ Yo‘q

Agar "ha" bo‘lsa, batafsil ma’lumot bering: _____

Kompaniya o‘tmishda oluvchiga xayriya yoki homiylik berganmi?

☐ Xa ☐ Yo‘q

Agar "ha" bo‘lsa, batafsil ma’lumot bering: _____

Xayriya/homiylik maqsadi: _____

Xayriya / Homiylikning tabiati va qiymati: _____

Taklif etilayotgan xayriya/homiylik uchun biznes sababi bormi? Agar shunday bo‘lsa, iltimos, tushuntiring. _____

tomonidan yakunlangan:

Chop etilgan ism

Departament va tashkilot

Imzo

Lavozimi/Mansabi

Sana

Muvofiqlik bo‘yicha bosh direktor foydalanishi uchun:

Tasdiqlangan? Xa / Yo‘q	
Tasdiqlash uchun sabab	
Muvofiqlik bo‘yicha bosh direktorning imzosi	
Sana	

VI. BIZNES HAMKORLAR, KONTRAGENTLAR VA UCHINCHI SHAXSLARNI TEKSHIRISH

Kirish

“UzAuto Motors” AJ (keyingi o‘rinlarda – jamiyat) o‘zining yuqori axloqiy me‘yorlarini baham ko‘radigan axloqiy barkamol biznes hamkorlar bilan ishlashga tayyor.

Jamiyat faqat axloqiy barkamol va hamkorlik axloq kodeksining asosiy tamoyillariga amal qiladigan biznes hamkorlar bilan ishlaydi. Jamiyat hamkorlarni ushbu yo‘riqnomaning tamoyillari va talablariga hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga zid bo‘lgan har qanday to‘lovlar yoki harakatlarni amalga oshirishga jalb qilmaydi.

Jamiyat obyektiv mezonlar asosida biznes hamkorlarni tanlashning halol, ochiq va shaffof jarayonini, shuningdek, sotib olingan tovar va xizmatlar qiymatini aniqlashning shaffof tartibini joriy qildi. Bu O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Jamiyatning ichki hujjatlari bilan tartibga solinadi. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq ravishda Jamiyat potensial biznes hamkorning ishonchliligini, shu jumladan uning o‘tmishda korrupsion faoliyat bilan shug‘ullanmagani va biznes hamkor va Jamiyat xodimlari o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelmayotganligini baholaydi.

Jamiyat va uning nomidan ish yurituvchi barcha biznes hamkorlar ushbu standartlarga rioya qilishlari shart. Biznes hamkorlar o‘zlarining axloqiy barkamolligini tegishli tekshiruv jarayonida ma‘lumotlar shaffofligini ta‘minlash orqali namoyish etadilar. Biznes hamkorlar manfaatdor mulkchilik haqida shaffof ma‘lumotlarni taqdim etishi juda muhimdir. Shaffof egalik ma‘lumotlarini taqdim etmaslik yoki Jamiyat so‘rovlarini bajarmaslik Biznes hamkor bilan munosabatlarni tugatish yoki o‘rnatishni rad yetish uchun asos bo‘lishi mumkin.

Vakolatli davlat organlari bilan hamkorlikda (masalan, litsenziyalash, ixtisoslashtirilgan kengashlarda ishtirok etish, turli hujjatlar, obyektlarni kelishuvi va boshqalar) Jamiyat hujjatlarni ko‘rib chiqishning shaffofligi va xolisligini ta‘minlashga qaratilgan va qarorlar qabul qilish jarayoni haqida zarur ma‘lumotlarni talab qiladi. ushbu vakolatli davlat organlari, xususan, ushbu davlat organlari tomonidan salbiy va boshqa xulosalar chiqarish uchun asoslar/asoslar to‘g‘risida qo‘shimcha ma‘lumot (talab qilinadi).

1.1 Atamalar va tavsiflar

Amaldagi qonunchilik - O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish; jinoyatchilikdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi; shuningdek AQSHning “Chet elda korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” (FCPA), sanksiyalarni joriy etish va eksport nazorati to‘g‘risidagi qonunchiligi, Biznes hamkorning ro‘yxatdan o‘tgan joyi yoki bo‘lib turgan mamlakatida amal qiluvchi (yurisdiksiya cheklovlaridan qat’i nazar) korrupsiyaga qarshi qonunchilik, rioya qilinishi kerak bo‘lgan, shuningdek qo‘llanilsa, ular bilan cheklanilmaydigan barcha normativ-huquqiy hujjatlar.

Nazorat ostidagi korxona - Kompaniya o‘zining ovoz beruvchi aksiyalarining (ulushlarining) yigirma foizidan ko‘prog‘iga ega bo‘lgan yoki ustav jamg‘armasida ustun ishtirok etish sababli tobe va (yoki) sho‘ba korxonasi, qo‘shma korxona va boshqa tashkilot.

Xodimning shaxsiy manfaatdorligi – Kompaniya xodimi, uning yaqin qarindoshi yoki xodim bilan bog‘langan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat vazifalarini tegishli

tarzda bajarishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlari) pul mablag'lari, moddiy va nomoddiy qadriyatlar, boshqa mulk, foyda, imtiyoz va afzalliklar ko'rinishidagi shaxsiy foyda olish.

Biznes hamkor (kontragent)ning benefitsiar egasi (yakuniy benefitsiar) - kontragentning xususiy egasi bo'lgan yoki ushbu Kontragent uchun majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish, qabul qilinayotgan qarorlarga ta'sir ko'rsatish yoki boshqacha tarzda uning xarakatlarini bevosita yoki bilvosita nazorat qilish huquqi yoki imkoniyatiga ega bo'lgan jismoniy shaxs;

korruptsiyaviy xarakatlar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo'lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo'lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog'oz, boshqa ko'rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

maxfiy axborot – bu olinishi, ishlanishi, uzatilishi yoki foydalanishi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki axborot egasining ichki hujjatlariga muvofiq cheklanadigan har qanday shakldagi axborot;

Kompleks tekshiruv (Ishonchlilik/ “Due Diligence” tekshiruvi) - Biznes hamkorlar bilan amaliy hamkorlikning boshlanishi haqida qaror qabul qilishdan oldin ko'rib chiqish va baholash jarayoni. Tekshiruvning asosiy maqsadi Biznes hamkorlarning malakasi, obro'si va ishbilarmonlik aloqalari, ayniqsa, Biznes hamkorlarning Davlat xizmatchilari bilan aloqalari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va baholash orqali Biznes hamkorlar bilan hamkorlikda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni aniqlashdan iborat.

Kompleks tekshiruv anketasi (Due Diligence Questionnaire yoki DDQ) - Biznes hamkor tomonidan to'ldiriladigan va Bog'lanish uchun shaxs tomonidan yig'iladigan so'rovnoma. Ushbu so'rovnoma faqat tahlilni talab qiladigan Biznes hamkorlar uchun tatbiq etiladi. Biznes hamkordan olingan ma'lumotlarga asoslanib, u bilan o'zaro hamkorlikning risklari tahlil qilinadi va baholanadi. Kompleks tekshiruv anketasining shakli ushbu Protseduraning *5-ilovasida* keltirilgan.

Bog'lanish uchun shaxs (Relationship Owner) - potensial Biznes hamkordan mahsulot (ishlar, xizmatlar) taqdim etilishi talab qilinadigan funksional bo'linmaning vakolatli vakili.

Risk faktorlari (“Red flags/ Qizil bayroqlar”) - aqli raso insonni noqonuniy xatti-harakatlar yuzaga kelishi (mavjudligi), insofsiz xatti-harakatlar, shuningdek, pora bilan sotib olish yoki korruptsiyaning katta xavfi to'g'risida ogohlantirishi mumkin bo'lgan salbiy ma'lumotlar, ko'rsatkichlar yoki holatlar, binobarin har qanday xatti-harakatlarni amalga oshirishdan oldin qo'shimcha tekshiruvni talab qiladi. Risk faktorlarining keng tarqalgan namunalari ushbu Protseduraning *3-ilovasida* keltirilgan.

Tanlovning asoslanganlik so'rovnomasi (Business Justification Questionnaire yoki BJQ) - ushbu Protseduraga muvofiq tekshiruvga tushishi mumkin bo'lgan Biznes hamkorlar va operatsiyalarni qayd etadigan, Bog'lanish uchun shaxs tomonidan to'ldiriladigan so'rovnoma. Tanlovning asoslanganlik so'rovnomasi ushbu Protseduraning *4-ilovasida* keltirilgan.

Bitim/ Shartnoma - ishlarni bajaradigan, tovarlarni yetkazib beradigan yoki Kompaniyaga xizmat ko'rsatadigan Biznes hamkor ishtirokidagi huquqiy munosabatlar yoki chizma. Ushbu atama, shuningdek, Kompaniya nomidan yoki uning topshirig'iga ko'ra ish yuritadigan Biznes hamkor bilan bo'ladigan har qanday tijorat bitimini anglatadi.

Skrining - Biznes hamkorni Risk faktorlari mavjudligi bo'yicha puxta tekshirish.

Skrining hisoboti shakli ushbu Protseduraning 6-ilovasida keltirilgan.

Siyosatning qo'llanilishi

Xodimlar bizning potensial kontragentlarimiz kimligini va ular qanday biznes yuritishini tushunishlari muhimdir. Biznes hamkorlar korrupsiyaga qarshi qonunlarni (ham milliy, ham xalqaro) buzsa, Jamiyat o'z hamkorlari harakatlari uchun javobgar bo'lishi mumkin, hatto Jamiyat ularga ruxsat bermagan yoki hatto ularning noqonuniy xatti-harakatlari haqida habardor bo'lmagan bo'lsa ham. Bunday qoidabuzarlik sodir etilgan taqdirda Jamiyat jiddiy moliyaviy, huquqiy va obro'ga zarar yetishi kabi yo'qotishlarga duch kelishi mumkin. Bunday holatlarga yo'l qo'ymaslik uchun har safar yangi yoki mavjud kontragent bilan shartnoma imzolanganda, har tomonlama tekshirish o'tkazilishi kerak. Kontragentlar poraxo'rlik, korrupsiya, pul yuvish va sanksiyalar xavfi bo'yicha tekshirilishi kerak.

Jamiyat va tizim Korxona xodimlari biznes hamkorlarini bilishlari va ular bilan shartnomalari bo'lishiga qaramay, biznes hamkorlar bilan og'zaki yoki yozma kelishuvga olib kelishi mumkin bo'lgan barcha muzokaralarni boshlashdan oldin Tegishli tekshirish tartibiga (keyingi o'rinlarda Tartib deb yuritiladi) rioya qilishlari shart. Yangi tartib talablariga mos ekanligiga ishonch hosil qilish maqsadida mavjud shartnomalarni ham tartibga ko'ra ko'rib chiqish kerak bo'ladi.

Ushbu tartib Jamiyatning barcha tarkibiy bo'linmalariga, shu jumladan nazorat ostidagi Korxonalarga nisbatan qo'llaniladi. Jamiyat nazorat ulushiga ega bo'lmagan qo'shma Korxonalarining xodimlari, mansabdor shaxslari va direktorlari (rahbarlari) ushbu Tartib talablarini bajarishlari rag'batlantiriladi.

Ushbu tartib amal qiladi:

- har safar biznes hamkor / kontragentni tanlaganingizda;
- biznes hamkor bilan qo'shimcha shartnoma tuzishda;
- agar joriy Biznes hamkor bilan munosabatlarning tabiati o'zgargan bo'lsa.

Ushbu tartib Jamiyatga yoki nazorat qilinadigan Korxonalarga investitsiya kiritishda yoki yangi tashkil etilgan Korxonalarda yangi sheriklar bilan bitimlar tuzilganda ham qo'llaniladi.shb

Jarayon quyidagi hollarda qo'llanilmaydi :

- yuridik shaxs Jamiyatga tegishli yoki uning nazorati ostida bo'lsa;
- tovarlar (ishlar, xizmatlar) elektron do'kon, kim oshdi savdosi, yagona yetkazib beruvchidan xarid qilish va to'g'ridan-to'g'ri shartnoma ko'rinishida, agar u rasmiy maxsus axborot portallari (platformalar) orqali amalga oshirilgan bo'lsa, sotib olinadi.

1.4 Tegishli tekshiruv

Bo'lajak kontragentni quyidagilar orqali tegishli tekshiruvdan o'tkazilishi kerak:

- xizmat ko'rsatish yoki tovarlarni taqdim etish uchun malakaga ega;
- sanoat sohasida yoki biznes sohasida kerakli obro'ga ega;
- har qanday manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lmashligi, shu jumladan uning aksiyadorlari va direktorlari ham;
- davlat mansabdor shaxsiga yoki davlat mansabdor shaxsining bevosita oila a'zosiga tegishli bo'lmashligi (qisman yoki to'liq hamda bevosita yoki bilvosita);
- eng yuqori axloqiy me'yorlarga muvofiq harakat qiladi;
- korrupsiya va poraxo'rlikning oldini olish bo'yicha tegishli siyosatni ishlab chiqqan va tadbiq etgan bo'lishi.

Agar tegishli tekshiruv bir yoki bir nechta muammoli yoki potensial "qizil bayroqlarni" aniqlasa, Komplayens xizmati boshlig'i tomonidan qo'shimcha tekshiruv zarurligi, bo'lajak kontragent qizil bayroqlarni yo'q qila olishi yoki qoniqarli tushuntira olishi, muzokaralar yoki mavjud ish munosabatlari to'xtatilishini hal qilishi kerak.

Ba'zi umumiy potensial "qizil bayroqlar" quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ortiqcha komissiya talab qilish;
- bir martalik to'lov (100% oldindan to'lov) yoki tijorat asoslarisiz ulkan miqdorda oldindan to'lovni talab qilish;
- xizmatlarning noaniq va mavxum doirasi;
- noaniq yoki shaffof bo'lmagan chegaralar;
- bo'lajak kontragent davlat mansabdor shaxsiga yoki davlat mansabdor shaxsining bevosita oila a'zosiga shaxsan tegishli yoki uning nazorati ostida bo'lsa;
- bo'lajak kontragent bunday so'rovni amalga oshirish uchun qonuniy ish asosiga ega bo'lmagan mansabdor shaxsning iltimosiga binoan bitimning bir qismi bo'lgan;
- istiqbolli kontragent boshqa kontragentlar yoki potensial kontragentlar bilan bir xil manzilda joylashgan;
- istiqbolli kontragent shirkati (shu jumladan Birlashgan Qirollik MCHJ) bo'lsa yoki B-1 ilovasida ko'rsatilgan yurisdiksiyalardan biriga kiritilgan ; istiqbolli kontragent o'z faoliyat joyidan tashqarida bir yoki bir nechta xorijiy bank hisob raqamlariga to'lovni talab qilsa; va
- mijoz yoki bo'lajak kontragent jinoiy, fuqarolik yoki me'yoriy huquqbuzarliklar yoki huquqbuzarliklarga oid har qanday ma'lum rasmiy yoki norasmiy da'volar (jumladan, nufuzli ommaviy axborot vositalarida) mavzusi bo'lgan yoki bo'lib turgan bo'lishi.

Muammoni hal qilish yoki shartnoma shartlarini o'zgartirish orqali bunday potensial qizil bayroqlarni hal qilish mumkin bo'lishi mumkin. Biroq, bu kabi barcha masalalarni bo'lajak

kontragent bilan biznes yuritishdan oldin Komplayens hizmati boshlig'i hal qilishi kerak. Komplayens hizmati boshlig'i qizil bayroqni baholash bo'yicha qaror qabul qilish vakolatiga ega.

Barcha kontragentlar bilan munosabatlar hujjatlashtirilgan va oshkora bo'lishi kerak, xususan, taqdim etilgan xizmatlar yoki tovarlarning hisob-fakturalari va isboti. Muayyan muvofiqlik qoidalarini o'z ichiga olgan yozma shartnomalar talab qilinadi. Muvofiqlik bilan bog'liq mumkin bo'lgan muammolar yuzaga kelganda, ular to'liq hal qilinishi kerak. Muvofiqlik bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan muammolar haqida so'rashdan qochishga yo'l qo'yilmaydi, chunki so'ramaslik o'z-o'zidan Jamiyat uchun javobgarlikni keltirib chiqarishi mumkin

1.4.1 Ishonchlilikni tekshirish protsedurasi

Protsedura quyidagi turlarga bo'linadi:

- soddalashtirilgan tekshirish tartibi (Simplified Due Diligence ili SDD);
- atroflicha tekshirish tartibi (Enhanced Due Diligence ili EDD).

Izoh:

- Protsedura Jamiyatning standart xarid protseduralarini almashtirmaydi va potensial Biznes hamkorlar (tanlov, tender yoki eng yaxshi takliflarning tanlovidagi finalchilar yoki g'oliblar)ga nisbatan qo'llaniladi.

Bog'lanish uchun shaxs:

- tanlov, tender yoki eng yaxshi takliflarni saralab olishda potensial Biznes hamkorni tekshirish protsedurasini ishtirokchilarni takliflarini ko'rib chiqish va baholanishi tugaganidan keyin va xarid komissiyasining protokol qarori boshlangunga qadar amalga oshirishi;
- yagona yetkazib beruvchi bilan amalga oshiriladigan xaridlar va to'g'ridan-to'g'ri shartnomalarda potensial Biznes hamkorni tekshirish protsedurasini shartnomani kelishishdan oldin amalga oshirishi lozim.

Bo'lajak kontragentga nisbatan tegishli tekshiruv jarayoni odatda quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi, ular soddalashtirilgan tekshirish tartibiga rioya qilinayotganligiga yoki chuqur tekshirish tartibiga rioya qilinganligiga qarab farq qilishi mumkin:

- Birinchi qadam: Biznesga bo'lgan ehtiyoj: Jamiyat bo'lajak kontragent bilan shartnoma tuzish uchun biznes zarurligini aniqlaydi. Agar Jamiyat bo'lajak kontragentga har qanday komissiya, topuvchilar yoki yo'llanma to'lovi to'lashni taklif qilmoqchi bo'lsa, u muvofiqlik bo'yicha bosh direktordan ruxsat olishi kerak.
- Ikkinchi qadam: Bo'lajak kontragent so'rovnomanini to'ldiradi: har qanday oldindan kvalifikatsiya yoki kotirovka jarayonining bir qismi sifatida istiqbolli kontragent tegishli tekshiruv so'rovini to'ldiradi va uni Jamiyatga qaytaradi.
- Uchinchi qadam: Jamiyat tomonidan skringing: Muvofiqlik bo'yicha mutaxassis ichki shaklni to'ldiradi va bo'lajak kontragentga nisbatan ommaviy axborot vositalarida qidiruvlar,

sanksiyalar va tegishli tomonlarni tekshirishni amalga oshiradi. Muvofiqlik bo'yicha bosh direktor Jamiyatning bo'lajak kontragent bilan hamkorlik qilishi mumkinligini tasdiqlaydi.

- To'rtinchi qadam: Malaka: Agar muvofiqlik nuqtayi nazaridan ma'qullansa, bo'lajak kontragent har qanday oddiy tanlov jarayonining bir qismi sifatida tanlanishi mumkin.

- Beshinchi qadam: Kompensatsiya: Agar bo'lajak kontragent har qanday komissiya, topuvchilar yoki yo'llanma to'lovini to'lashni talab qilgan bo'lsa, muvofiqlik bo'yicha bosh direktordan ruxsat olish kerak.

- Oltinchi qadam: Shartnoma: Agar Jamiyat kontragent bilan shartnoma tuzsa, ushbu shartnomada rioya qilish bo'yicha aniq qoidalar mavjud.

Ettinchi qadam: Monitoring va ko'rib chiqish: Agar Jamiyatning kontragent bilan munosabatlari davom etsa, u holda Jamiyat vaqti-vaqti bilan va kamida ikki yilda bir marta kontragentga tegishli tekshiruv o'tkazadi. Muvofiqlik bo'yicha bosh direktor ushbu yangilash jarayoni ikki yil tugashidan oldin sodir bo'lishini ko'rsatishi mumkin. Jamiyat muvofiqlik majburiyatlarini sertifikatlashni talab qilishga qaror qilishi mumkin.

1-bosqich. Tijorat zaruriyati:

Har safar Biznes hamkorni tanlashda Bog'lanish uchun shaxs u bilan hamkorlik o'zini oqlaganini aniqlab olishi, zarurat bo'lganida, Komplayens xizmati (keyingi o'rinlarda Komplayens deb yuritiladi) bilan Biznes hamkorning kompleks tekshiruv protsedurasidan o'tishi bo'yicha maslahatlashishi lozim.

3.4. Biznes hamkorning kompleks tekshiruvini o'tkazish yoki o'tkazmaslik to'g'risida qarorni qabul qilish uchun Bog'lanish uchun shaxs Tanlovning asoslanganlik so'rovnomasini to'ldiradi va imzolaydi.

3.5. Tanlovning asoslanganlik so'rovnomasini imzolashdan oldin, Bog'lanish uchun shaxs ushbu Tanlovning asoslanganlik so'rovnomasini kelishish uchun Komplayens xizmatiga elektron pochta orqali yuboriladi.

Komplayens xizmati Tanlovning asoslanganlik so'rovnomasida taqdim qilingan ma'lumotlarning to'liqligini tekshiradi va bunda, Biznes hamkor bilan manfaatlar to'qnashuvi yoki Risk faktorlari mavjudligi yuzasidan shubha bo'lgan taqdirda Biznes hamkor kompleks tekshiruvdan o'tishi o'tmasligi lozimligi yuzasidan qaror qabul qiladi hamda Tanlovning asoslanganlik so'rovnomasida tegishli izoh qoldiradi.

3.6. Komplayens xizmati tomonidan Tanlovning asoslanganlik so'rovnomasini ko'rib chiqish va kelishish muddati 1 (bir) ish kunidan oshmasligi zarur.

3.7. Tanlovning asoslanganlik so'rovnomasiga tayanib, Bog'lanish uchun shaxs Biznes hamkor kompleks tekshiruv protsedurasidan o'tishi lozimligini aniqlashi kerak. Ushbu qaror quyidagilarga asoslanishi kerak:

a) manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi;

b) Risk faktorlari mavjudligi (3-ilovaga qarang).

3.8. Soddashtirilgan tekshirish tartibi, bitim Biznes hamkorlar uchun soddashtirilgan tekshirish tartibida o'tkaziladigan bitimlar ro'yxatiga kiritilgan va Komplayens xizmatining

Tanlovning asoslanganlik so'rovnomasida Biznes hamkor kompleks tekshiruvdan o'tmasligi yuzasidan tegishli xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda taqdirdagina amal qiladi. (2-ilovaga qarang).

3.9. Agar Biznes hamkor kompleks tekshiruvdan o'tishi lozim bo'lmasa, Bog'lanish uchun shaxs Protseduraning 4-bosqichni bajarishga o'tadi.

3.10. Agar Biznes hamkor kompleks tekshiruvdan o'tishi lozim bo'lsa, Bog'lanish uchun shaxs Protseduraning 2-bosqichni bajarishga o'tadi.

Atroflicha tekshirish tartibi

2-bosqich. Biznes hamkordan ma'lumot olish: Prospective Counterparty Completes Questionnaire (for both the simplified and in-depth verification procedure):

Bog'lanish uchun shaxs Tanlovning asoslanganlik so'rovnomasini Komplayens xizmatiga taqdim etgach, Biznes hamkor Kompleks tekshiruv anketasini olishini ta'minlashi va Komplayens xizmatiga xabar bergan holda uning o'z vaqtida to'ldirilishini kafolatlashi shart.

Bundan tashqari, Komplayens xizmati A6 shaklini taqdim etadi: potensial kontragentga yuborilishi kerak bo'lgan "potensial kontragentlar uchun Due Diligence so'rovnomasi" ("Due Diligence so'rovnomasi" yoki "DDQ"). Potensial kontragent ushbu so'rovnomani to'liq to'ldirishi va Jamiyatga barcha so'ralgan hujjatlarni taqdim etishi kerak.

Xodimlarga potensial kontragent uchun tegishli tekshiruv so'rovnomasining biron bir qismini to'ldirish taqiqlanadi.

